



O`zbekiston Respublikasi
Oliy va O`rta Maxsus Ta`lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti



IKROMOV IKROM

**Mavzu: “ARAB MAMLAKATLARIDAGI O`ZBEKLAR TARIXI
VA ETNOGRAFIYASI (XIX-XX ASRLAR)”**

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: _____

professor : Hayitov Sh.A

Himoya sanasi:

D.A.K.ning bahosi

« ____ » _____ 2015 – yil

D.A.K.ning xulosasi _____

Buxoro – 2015.

Reja:

Kirish.

I Bob. Arab mamlakatlarida o'zbek diasporasining shakllanishi, o'zbeklarning soni, ijtimoiy mavqei va mashg'ulotlari.

I.1. Arab mamlakatlari bo'ylab muhojir o'zbeklarning tarqalishi va soni xususida.

I.2. Muhojir o'zbeklarning ijtimoiy mavqei va mashg'ulotlari.

II.Bob. Suriya Arab Respublikasi va Saudiya Arabistonidagi o'zbeklar tarixi hamda etnografiyasi

II.1. Suriyada muhojir o'zbeklarning tarixi va etnografiyasi .

II.2. Saudiya Arabistonidagi o'zbek(turkistonliklar) tarixi va ularda kechgan etnosotsial jarayonlar

III. Bob. Arab mamlakatlaridagi muhojir o'zbek ziyolilari va ularning ma'naviy me'rosi

III.1. Shayx Abdulqodir Karomatullo Buxoriy - Sabboqning ibratli saboqlari.

III.2. Saudiya Arabistondagi o'zbek millatiga mansub olim, diniy ulamolar, shoir va ijodkorlarning ilmiy me'rosi.

a) Sayyid Mubashshirxon Taroziy

b) Sayyid Qosim domla Andijoniy

v) Muhammad Yunus Yo'ldosh o'g'li Namangoniy

g) Kamol Abdulloh Toshqin - Saudiya Arabistonlik o'zbek adibi

Xulosa

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston milliy istiqloli yillarida tarixni xolisona va ob'ektiv o'rganish, o'tmishda kechgan voqeliklarga qanday bo'lsa, shunday yondashuv konsepsiyasi shakllandi. Hechqachon tarixni o'rganish bugungi kundek dolzarb qilib qo'yilgan emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1998-yil iyun oyida mamlakatimiz yetakchi tarixchilari bilan uchrashuvi, o'sha yilning 27-iyulida O'zbekiston fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi farmonlari tarixiy tadqiqotlarning istiqbolini ochib berdi.

„Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi¹” deb, fikr bildirgandilar prezidentimiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har bir nutqida tarixni davlat siyosati darajasida o'rganish masalasi, tariximizni turli bosqichlarini xolisona tahlil qilish masalalari ko'tarilayotganligi e'tiborga loyiq.

Istiqlol arafasidayoq prezident: „Jamiyatshunoslar O'zbekiston tarixining ko'pgina sahifalarini qayta bitishlari, chunonchi, chorizm yillarida O'rta Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakati, 1920-1930-yillardagi adabiy-g'oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak²”- deb tarixchilarning oldiga dolzarb vazifalar qo'ygandilar.

Aynan sovet mustabid tuzilishning 1917-1920, 1920-1930-yillarida zo'ravonlik, milliy kamsitish siyosati tufayli muhojirlar bo'linishi mutassil ro'y berdi. Men tanlagan mavzuning dolzarbligi yuqoridagi fikrdan kelib chiqadi. Shuningdek, arab mamlakatlari bilan biz yashab turgan mintaq, O'rta Osiyo

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq;1998.-B.9

² Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.:O'zbekiston;2011.-B.91.

davlatlari o'rtasida qadimdan Buyuk Ipak yo'li orqali bizni savdo-sotiq, madaniy va diniy hamjixatlik aloqalari bo'lgan. Ushbu aloqalar tajribasi shuni ko'rsatadi - ki, ming-minglab turkistonliklar sovet hukumati yillarida qatag'on va tazyiqlar tufayli asl vatanlaridan uzoqlashib, o'nlab arab davlatlaridan boshpana topganlar. Ushbu voqeliklardan ham salkam bir asr o'tdi. Arab mamlakatlarida umr guzaronlik qilgan va bugungi kunda yashayotgan o'zbeklar tarixi hamda etnografiyasini o'rganish dolzarb ekanligi isbot talab qilmasa kerak. Arab mamlakatlarida hozirda hayot bo'lgan o'zbeklar O'zbekiston va uning tabiati hamda tarixini ota-bobolaridan eshitib voyaga yetishgan, biroq ular o'zbeklar avlodi ekanligidan faxrlanishadi. Globalashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi dunyoda etno-milliy jarayonlar, etnik uyg'onish bilan bog'liq voqealar o'zini namoyon qilmoqda. Shunday ekan xorijdagi o'zbeklar mavzusi, ular tarixi va etnografiyasini o'rganishning dolzarbligi oshib boraveradi.

Dissertasiyaning maqsad va vazifalari: Mazkur dissertasiyada arab mamlakatidagi o'zbek muhojirlarining tarixi bosqichlari, ularda kechgan etno-sotsial jarayonlarni yaxlit holda tadqiq qilish maqsadi ko'zlandi. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, dissertant o'z oldiga aniq vazifalar belgilab oldi.

-Arab mamlakatlaridagi o'zbek xalqi vakillari borib joylashuvining tarixiy ildizlari, dastlabki bosqichlari haqida ma'lumot berish.

-Muhojir o'zbeklarning arab davlatlari bo'ylab tarqalishining „o'zbek diasporasi vujudga kelishidagi jarayonlar dinamikasini tahlil qilish.

-Turli arab mamlakatlarida istiqomat qilgan va hozirda yashayotgan o'zbeklarning soni, ijtimoiy tartibi, mashg'ulotlari haqida fikr yuritish.

-O'zbek muhojirlari nisbatan zich yashayotgan ayrim arab mamlakatlari (Saudiya Arab Respublikasi va hokazo) dagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasini nisbatan kengroq tahlil qilish.

-Arab mamlakatlaridagi o'zbeklarning avlodiy almashinuvi jarayonini milliy-etnik qiyofaga ta'siri, o'zlikni saqlab qolish jihatlari va tasdiqlangan holatlar kechganligini ochib berish.

-Muhojir o'zbeklarning to'y-ta'ziya marosimlari, ulardagi milliylik hamda arab sivilizatsion jarayonlar uyg'unligi jihatlari ko'rsatish.

-Dissertasiya so'ngida ushbu mavzuni yanada mukammal o'rganish bilan bog'liq taklif va mulohazalar ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Biz tadqiq qilayotgan dissertasiya mavzusini o'rganishda foydalanilgan manbalar va adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin. Ta'kidlash joizki, dissertasiyada asosan istiqbol yillarida chop etilgan ishlardan foydalanildi.

1. O'zbekiston tarixchi va jamiyatshunoslarning kitob, dissertasiya hamda maqolalari
2. Respublika davriy matbuotida chop etilgan maqola va xabarlar
3. Xorijda chop etilgan adabiyotlar
4. Internet ma'lumotlari

Mustaqillik arafasida sovet jamiyatidagi qayta qurish, oshkoralik va demokratiya shiorlari ostida boshlangan jarayonlar avvalda o'rganilishi taqiqlangan mavzularga qo'l urish uchun yo'l ochildi. Shunday mavzulardan biri „o'zbek muhojirligi“ masalasi bo'lib, xorijning turli mamlakatlarida yashayotgan o'zbeklar haqida dastlabki maqolalar e'lon qilindi. Ushbu maqolalarda arab mamlakatlaridagi o'zbeklar hayotini aks ettiruvchilari ham bor ediki, ular sirasiga A.Yusupov, M.Abdullayev, Abdulla Andijoniy, B.Ahmedov, Abdulqayum Ayritomiy,

Abdulvohid Yassa, Z.Rahimboyeva, I.Usmonov, E.Qosimov, Esirgap Boli o`g`li Jo`shqin³ kabilarning maqolalarini kiritish mumkin.

X. Yusupovning „Xorijdagi o`zbeklar” maqolasi Suriya Arab Respublikasi o`zbeklar tarixi, turmushi, etnografiyasi, ularning O`zbekiston hukumatiga murojaatlari kabilar talqiniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Yuqorida qayd qilingan mualliflarning maqolalarida Saudiya Arabistoni, Misr Arab Respublikasi, Urdun, Iroqdagi o`zbeklar , ularning soni , mashg`ulotlari haqida fikr bildiradi. Ushbu maqolalar O`zbekiston jamoatchiligini arab mamlakatlaridagi o`zbeklarning tarixi va etnografiyasi bilan tanishtirishda ilk qadamlar bo`ldi. Istiqlolning dastlabki o`n yilligida xorijdagi ayrim o`zbeklarning maqola va kitoblari O`zbekiston matbuotida bosildi. Ular asosan xotira kitoblaridan iborat bo`lib, arab mamlakatlaridagi o`zbeklar faoliyati lavhalari o`z aksini topgan nashrlar ham mavjud. Bu yo`nalishda Zuhridin Mirzo Obid o`g`li Turkistoni, Sayid Mubashirxon Kosoniy, Sobir Sayxonli, Ibrohim Yorqin kabilarning xotiralarini sanab o`tish mumkin. Ushbu ishlar orasida Zuhridin Turkistoniyning risolasi Saudiya Arabistoni va boshqa arab mamlakatlaridagi o`zbeklar haqida kengroq ma`lumot beradi. Zuhridin Turkistoniyning o`zi ham Saudiya Arabistonidagi o`zbek muhojiri hisoblanadi.⁴

„O`zbek muhojirligi” muammosini jiddiy tadqiqotga tortilishi natijasida va bu mavzuda ilmiy dalillarga tayanilgan maqolalar, asarlar yaratish ham istiqlolning

³ Yusupov A. Xorijdagi o`zbeklar//Yoshlik;1989.N2.-B.54-58;Abdullayev M.Otamakon O`zbekistonda//O`zbekiston adabiyoti va san`ati;1991-yil,27-sentyabr Abdulla Andijoniy.Dardini olay O`zbekistonim// O`zbekiston adabiyoti va san`ati;1991-yil 1-noyabr; Ahmedov B.O`zbeklar//muloqot.1991.-N1.-b.53-56; Abdulqayum Ayritomiy.Lutфу-ehson,mehr-muruvvat//muloqot;1995.-N4-B.28-30; Abdulvohid Yassa.Jon ketar,Vatan ketmas.//Guliston;1996.-N3.-B.14-15. Z.Rahimboyeva.Vatan,Vatanparvar,Vatanjudo//Xalq so`zi'-1991-yil 17- yanvar; Usmonov I.Tutash taqdirlar//Muloqot.1991.-N11.-B.91-95; shu muallif. Otamakon diyor tushlariga kiradi//muloqot.-1991.-N12.-B.68-72.QosimovE.Otajon men qizingizman//Toshkent haqiqati.1991- yil 30-noyabr.Esirgap Boli `og`li Jo`shqin. Hojilar//Xalq so`zi,1991-yil 4-yanvar.

⁴ Zuhridin Mirzo Obid o`g`li Turkistoni.Anda jonim qoldi mening....-T:Cho`lpon;1992.-58 bet. Mubashirxon Said. Xotiralar//Dunyo.1993.-N1.-B.28-29.Sobir Sayxonli.Adashganlar(xotiraviy qissa).T:Cho`lpon;1996.247 bet; Ibrohim Yorqin.xotiralar//Jahon adabiyoti.2002. -N6.-B.134-135.

dastlabki yillarida boshlandi. Bu yo`nalishda monografiya, ilmiy-publistik asar yaratish, maqolalar chop ettirish orqali arab mamlakatlaridagi o`zbeklar masalasi ham chetda qolmadi. Arab mamlakatlaridagi o`zbeklar tarixi va etnografiyasiga oid boy ma`lumotlarni Nurullo Abdulloyev, Sh. Hayitov, G.A`zamova, D.Brauer, Jalilov, A.Irisov<sup>5</sup> kabilarning tadqiqotlaridan olamiz. Sh. Hayitovning o`nlab monografiya, risola va kitoblarida o`zbek muhojirligi tarixi yaxlit holda o`rganilar ekan, ularda arab dunyosidagi o`zbeklar tarixiga oid dalil va raqamlarni olish mumkin. S. Jalilovning kitobi esa Saudiya Arabistonidagi o`zbeklar tarixini nisbatan keng yoritgan. D.Brauer esa arab mamlakatlari orqali turkistonliklar haj safariga borganliklari, ayrim millatdoshlarimiz bu mamlakatlarda yashab qolganligini ko`rsata olgan. Dissertatsiyaning mazmunini yoritishda xorijda chop etilgan ayrim adabiyotlardan ham foydalanildi. Ushbu adabiyotlarni o`rganib, tadqiqotimizda qo`llash uchun rahbarim professor Sh.A. Hayitov shaxsiy kutubxonasi qo`l keldi.

Ishda internet ma`lumotlari ⁶ ham ilmiy muomalaga olib kirilib, men ulardan tanqidiy ravishda qiyosiy tahlil maqsadida foydalandim.

Muammoning o`rganilganlik darajasi tahlil qilinar ekan, hanuzgacha arab mamlakatlaridagi o`zbeklarning tarixi va etnografiyasi kompleks holda tahlil qilinganligi ayon bo`ldi. Ushbu nuqtai nazardan masalaga qaraganda bu mavzuni alohida holda tadqiq qilish ehtiyoji va zarurati mavjud deb hisoblash mumkin.

**Tadqiqotning ob`ekti va predmeti:** Dissertatsiyaning ob`ekti arab mamlakatidagi o`zbeklar tarixi va etnografiyasi hisoblanadi. Arab mamlakatlaridagi o`zbeklarning

⁵ Hayitov Sh. va b. Xorijdagi o`zbeklar.-T:Fan;1992.-107 bet. Shu muallif.O`zbek muhojirligi tarixi.-T.ABV-MATBUOT-KOLSALT;2008.208 bet. Hayitov Sh; Aymatova Z.Markaziy Osiyo musulmonlarining muborak haj ziyorati:tarix va bugun. -Buxoro: „Buxoro” nashriyoti.2014.42 bet; A`zamova G.A Xorijdagi o`zbeklar: ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muammolari.Falsafa fanlar nomzodi dissertatsiyasi,-T.:1995.-116 varaq. Brauer.D. Makkaga yo`l//Turon.1993-yil may.-B.30-32.Nurullaxon hoji Abdullaxon o`g`li. Muborak haj safari.T.:Kamalak;1991.-141-bet; Jalilov S.Buxoriylar qissasi(muhojirat tarixidan lavhalar).Toshkent Islom universiteti”nashriyot matbaa birlashmasi. Toshkent; 2006.-284 bet;Irisov A.Vatan mehri//Guliston;1995.-N5-6.B.38-40.

⁶ <http://WWW.Pegnum.ru/news/1162929>. WWW.e.tarix.uz; WWW.12.uz.

borib joylashuvi, „o`zbek diasporasi”, o`zbek millati vakillari hayoti, ijtimoiy mavqei, milliylikni saqlab qolish darajasi, unga ta`sir qilgan omillar va ularning asl Vatanlari O`zbekistonga munosabatlarini ochib berish tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning ilmiy-nazariy yangiligi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasiga ilk bor o`nlab arab mamlakatlaridagi o`zbek muhojirligi tarixi va etnografiyasi masalasi kompleks holda o`rganilayotganligi va bu mamlakatlarda „o`zbek diasporasi” vujudga kelishi dinamikasi ochib berilganligi ilmiy-nazariy yangiligi hisoblanadi. Shuningdek, dissertatsiya arab mamlakatlari bo`ylab o`zbeklar muhojirlari tarqalishidagi tarixiy ildizni, omil va sabablarni, tarixiy bosqichlarni tizimli bayon qildi, arab mamlakatlaridagi o`zbeklarning boshqa mamlakatlardagi o`zbeklar bilan umumiy jihatlari unga xos spesifik xususiyatlari qarab chiqilganligi ham ishning ilmiy-nazariy yangiligiga xizmat qiladi. Tadqiqot so`ngida keltirilgan yakuniy xulosalar, bildirilgan taklif va mulohazalar ham uning yangiligi bo`la oladi. **Dissertatsiyaning nazariy – metodologik asosi:** Dissertatsiyaning nazariy –metodologik bazasini, avvalo, O`zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning asar va nutqlari, ularda tarixni o`rganishga qaratilgan tavsiyalar tashkil etadi.

Prezidentning farmon va qarorlari, Hukumar qarorlari, istiqlol yillarida qabul qilingan rasmiy hujjatlar va qonunlar nazariy –metodologik asos bo`lib xizmat qildi. Tarixiy tadqiqotlar olib borishning ob`ektivlik va xolisonalik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, snegretik yondashuv, tarixiylik kabi tamoyillar asosida ish ko`rildi. Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasining yetakchi tarixchi olimlari tomonidan tarixni o`rganishga qaratilgan konsepsiya va qarashlar ham ishni nazariy –metodologik bazasini mustahkamlashga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning ilmiy-amaliy ahamiyati: Dissertatsiya O`zbekiston tarixi fanida arab mamlakatlaridagi millatdoshlarimiz va ular avlodlari tarixi va etnografiyasi masalalarini birgalikda yaxlit o`rganilganligi holda tegishli xulosalarga kelganligi, bir qator ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan ilmiy

ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiya materiallaridan „O`zbekiston tarixi”, „O`zbekistonning xalqaro munosabatlar tarixi”, „O`zbeklar tarixi va etnografiyasi” fanlari bilan bog`liq o`quv qo`llanma, darslik, metodik ishlanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin. Tadqiqotda keltirilgan raqam va dalillar asosida yoshlarda milliy o`zlikni anglash, milliy g`urur, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg`ularini shakllantirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, Dissertatsiya materiallari Respublika muassasa va tashkilotlarida ma`naviy o`qishlarni samarali o`tkazish manbaalaridan bo`la oladi.

Dissertatsiyaning joriylanishi: Tadqiqot mavzusi tarix kafedrasida magistrlik dissertatsiyalari ro`yxati bazasiga kiritilgan bo`lib, BuxDU tarix kafedrasining yig`ilishida va universitet ilmiy-texnik kengashida muhokama qilinib tasdiqlangan. Tadqiqot yuzasidan Buxoro Davlat Universiteti an`anaviy-ilmiy anjumanlarda (2013-2014; 2014-2015-yy) ma`ruzalar qilingan va muntazam ilmiy hisobotlar berib borilgan. Tadqiqot yuzasidan muallifning ikkita maqolasi chop etilgan. Dissertatsiya mavzusiga asoslangan yo`nalishda Buxoro Davlat Universiteti qoshidagi 4-son akademik liseyda „O`zbeklar va dunyo”, „Muhojir o`zbeklar va O`zbekiston” mavzularida muloqot kechasi tashkil etilgan. Tadqiqot materiallari o`rta maxsus o`quv yurtlaridagi o`quvchilarga „O`zbekiston tarixi”, „Jahon tarixi” fanlarida ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarda, viloyat miqyosidagi ma`naviy o`quvlarda keng targ`ib qilindi. Dissertatsiya universitetning veb-saytiga kiritildi.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro`yxati, ilova qismlaridan iborat.

I.1. Arab mamlakatlari bo'ylab muhojir o'zbeklarning tarqalishi va soni xususida.

Bugungi kunda arab mamlakatlariga Yaqin va O'rta Sharq jo'g'rofiy mintaqasida joylashgan 14 ta mamlakat kiradi. Arab mamlakatlari o'z taraqqiyoti jihatdan turli bosqichlarda bo'lib, ularning asosiy qismi neft hisobiga yashayotgan davlatlar hisoblanadi. Masalaning bir jihati shundaki, arab mamlakatlari xom-ashyoga boy bo'lishi bilan birga, jahon savdo yo'llari tutashgan mintaqada joylashgan. Shuningdek, qadimgi Buyuk Ipak yo'lining o'nlab, yuzlab tarmoqlari ushbu mintaqadan o'tib, strategik ahamiyat kasb etgan.

Diniy, hududiy hamda an'anaviy omillar tufayli Markaziy Osiyo bilan Arab dunyosi o'rtasida qadim-qadimdan savdo-sotiq, ilmiy-madaniy aloqalar mavjud bo'lgan. O'rta asrlarda noan'anaviy, beshinchi arab sivilizatsiyasiga asos solinganligi, islom omili kabilar tufayli bu xalqlar o'zaro sivilizatsiyon ta'sir ko'rsatish maydonida bo'lishgan. O'rta qolgan XX asr jahon va O'zbekiston tarixida muhim saboqlar chiqarishimizga undamoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek: "Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi."⁷

Shu sababli O'rta Osiyoda arab migratsiyasi, aksincha bu mintaqadan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga turkistonliklarning migratsion oqimlari ro'y berib turgan. Tarixdan ma'lumki, qaysikim hukmdor taxtdan tushirilsa, yoxud shohlik martabasidan ajralsa musulmonlarning muqaddas shaharlari Makka va Madinaga haj ziyoratiga o'tlangan. Muqaddas haj ziyoratiga yo'l -Turkiya, Eron, Misr davlatlari orqali o'tgan. Dastlab arab dunyosiga o'zbek xalqi vakillarining borib joylashuvi yakka tartibda bo'lgan. O'zbeklar savdo-sotiq ehtiyoji; „haj ziyorati“ kabi maqsadlarda yo'lga chiqar, ayrim paytlarda ishlari yurishib u yoki bu arab mamlakatlarida qolib ketishardi. O'zbek xalqi vakillarining xorijda yashab

⁷Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.- T.:Sharq; 1998. – B. 9.

qolishiga vaqt-vaqti bilan kuchaygan o`zaro feodal urushlar, xonliklar o`rtasidagi kelishmovchiliklar, qul savdosi, irrigatsiya inshootlari va dehqonchilik vohalari bo`lgan hududlarning toptalishi kabi ko`pdan-ko`p omillar ta`sir ko`rsatgan.⁸

Ashtarxoniylar hukmdorlaridan Imomqulixon Makka shahrida oltin tutqichli zinapoya qurdirgan. Ayniqsa mang`itlar sulolasining vakili, „Ojiz” taxallusi bilan ham she`rlar yozgan Amir Abdulahadxon (hukmronligi:1885-1910 yillar) davrida Makka va Madina shaharlarida takyaxona (g`aribxona); mehmonxona, madrasa, xonaqoh, savdo do`konlari, uy-joylar, tegirmon, rabot(qal`a), masjid, bog` va hovli joylari kabilar bunyod etilgan. Makka va Madinada Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan haj ziyoratiga boradiganlar uchun 2 ta mehmonxona qurilgan. Madina shahridagi yotoqxonaning bahosi 20.000 oltin so`m miqdorida bo`lib, ushbu mehmonxona shaharning Bobul Majid ko`chasida joylashgan. Makka shahridagi amir qurdirgan mehmonxona esa Shamil ko`chasida joylashgan bo`lib, uning bahosi 15.000 oltin so`m darajasida bo`lgan.<sup>9</sup> XIX asr oxirida muqaddas shaharlarda bunyod etilgan amir inshootlarining egalari buxoroliklar bo`lishgan. Yotoqxona va mehmonxonalarda 20 nafargacha buxoroliklar va o`zbeklar mijozlar xizmatida bo`lishgan. Ayrim o`zbeklarning Makka, Madina, Qohira, Damashq, Bag`dod, Basra shaharlarida savdo do`konlari bo`lib, ulardagi peshtoqlarda „Buxoroliklar do`koni”, „Samarqandliklar do`koni”, „Toshkentliklar do`koni” kabi arab imlosida eski o`zbek adabiy tilida yozib qo`yilgan. Savdo ishlari yurishib ketganlar musulmonchilik qoidasiga ko`ra xorijda nikohga kirishib, oilalari bilan yashashgan.¹⁰

XX asr boshlariga qadar arab mamlakatlariga o`zbeklarning borib qolishi va muqim turib qolishi yakka holatda bo`lib, ommaviy tus olmagan edi. Bu davrda arab dunyosidagi „o`zbek diasporasi” haqida gapirish reallikdan yiroqdir.

⁸Ziyayev H. Z. Sibirdagi o`zbeklar.-T.:Fan ;1966.-B.13.

⁹Hayitov Sh. A. Buxoro hukmdorlarining xorijda qurdirgan inshootlari (muammoning manbashunosligi va tarixshunosligi) / “XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buxoro” mavzusida respublika ilmiy- nazariy anjumani materiallari. – Buxoro -2010.-B.219-220

¹⁰Islom huquqi (Fiqhi) bo`yicha har bir musulmon erkak 4 ta xotinga ega bo`lishi beshinchi ayolga uylansa, bir xotini bilan nikohni bekor qilishi kerak.

Mustaqilligimiz arafasida, ya`ni 1989-yilda O`zbekiston Respublikasi mutassaddi rahbarlariga madaniy yordam so`rab maktub yo`llagan o`zbeklar ma`lumotlaridan aniq bo`ladiki, „buxoriylar” (ular o`zini shunday atashadi-I.I.) bu yurtga XX asrdan oldin ham kelib qolganlar bor. Biroq ularning bolalari O`zbekistonni Vatan deb biladi.<sup>11</sup> Suriya Arab Respublikasida XX asr dastlabki 10-yilliklarida 20 ming sonli turkistonliklar yashab, ular o`zlarini „buxoriylar” deb tanitganlar. Bu mamlakatdagi muhojir o`zbeklar haqida kengroq ma`lumot berishdan maqsad, ular ilk bor shu davlatda o`zlarining milliy uyushmalariga asos soldilar. 1920-1930-yillarda o`zbeklar jamoasi poytaxt shahar Damashq va uning atroflarida hamda Shom viloyatida yashardi. Tijorat va tadbirkorlik bilan boyib ketgan o`zbeklar o`zlarining mablag`lari hisobiga musulmon masjidi qurganlar. Ma`lumki, Birinchi jahon urushi natijalariga ko`ra, 1919-1920- yillardagi Versal-Vashington tizimi qarori bilan Suriya Fransiyaga mandat qilib berilgandi. O`sha davrdan o`zbeklar Suriya arab davlati aholisining umumiy ro`yxatiga kiritildi. 1940-yilda Damashqda o`zbeklarning „fuqarolar yordamlashma jamiyati” tuzildi. Ushbu jamiyat qoshida muhojir o`zbeklar savodini chiqaradigan maxsus o`quv kursi, bolalar uchun ona tilida boshlang`ich maktab ochildi. Maktab va kursda o`qitish ishlari tekin, homiylik asosida yo`lga qo`yildi.¹²

Damashq shahri atrofida joylashgan aholi markazi Jomi al-A`zamda, diniy maktab bazasida „O`zbeklar yordamlashma jamiyati” ham bo`lgan. Ushbu uyushmaning maqsadi- moddiy ahvoli og`ir bo`lgan muhojir millatdoshlarga ko`maklashish edi. Falastin markazi Quddusda „O`zbeklar markazi” XX asr boshlarida tuzilgan bo`lib, ushbu tashkilotni Shayx Abdulla Aziz al-Buxoriy boshqargandi.

Suriyadagi muhojir o`zbeklar tuzgan jamiyatlar tugab ketishiga sabab, 1958-yilda mustaqil Suriya Arab Respublikasi tashkil topishi bilan hukumat tomonidan chiqarilgan har qanday uyushmalarni ta`qiqlash to`g`risidagi qonundir. Bunday holat barcha Arab mamlakatlari mustaqillikka erishilganidan so`ng yangi

¹¹Qarang. Yusupov A. Xorijdagi o`zbeklar //Yoshlik, 1989.- N6.-B.13-15

¹²Hayitov Sh. A. Buxoroliklarning xorijdagi tashkilot va uyushmalari tarixidan // Из истории культурного наследия Бухары (11-выпуск) изд. “Бухара”- 2008.- С. 72-73

hukumatlar siyosatiga xos bo`lib, mazkur davlatlarda o`zbeklar qanchalik ko`p sonli bo`lib yashamasinlar bugungi kunda ularning deyarli birorta ham rasmiy jamiyatlari yo`q.¹³

Arab mamlakatlaridan Misr Arab Respublikasida o`zbeklar zich yashaganligining muhim omili shundaki, Misr savdo yo`llari ustida joylashgan edi. Sharq mamlakatlari va Shimoliy Afrika orqali savdo-sotiq ishlari Misrning Qohira, Aleksandriya(Iskandariya) shaharlari orqali olib borilgan. Ikkinchidan, Misr orqali Makka va Madina shaharlariga muqaddas haj ziyoratiga olib boradigan yo`llar tutashardi. Arab mamlakatlarining qay biriga yashashdan qat`iy nazar muhojir o`zbeklar orasida, „gadoy“ va „qashshoq“ yo`q. Ular qayerga bormasin o`zining mehnatsevarligi, chidam va irodasi bilan o`z salohiyatini namoyish qilgan.

O`zbeklar orasidan dono va bilimdon diniy ulamolar, dunyoviy bilim namoyandalari yetishib chiqqan. Ota-onasi andijonlik bo`lgan, Damashqda yashagan Burxon al-Buxoriy. U filologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borib, professor darajasiga erishgan. U uzoq yillar davomida faoliyat yuritib, „O`zbek-arab tili lug`ati“ kitobini yaratdi. Kitob bir necha bor qayta-qayta nashr qilindi. Burxon al-Buxoriy she`r mulkingning sultoni Hazrat Alisher Navoiyning asarlarini transkripsiya yo`li bilan Yevropa tillariga (ingliz, fransuz, nemis-I.I.) tarjima qilib tarqatish bilan shug`ullanadi. Olimga arab dunyosida ta`lim bergan va tarbiyalagan 20-30 nafar shogirdi doimo ilmiy madad berib kelmoqda.

Arab mamlakatlaridagi o`zbeklar soni XX asr birinchi yarmiga qadar tez-tez o`zgarib turdi. Buning asosiy sabablari bu mamlakatlarda siyosiy vaziyatning keskinlashib turishi, mintaqaviy mojarolar, muhojirlar bilan bog`liq qonunlar kabilarda namoyon bo`ladi. Xullas, XX asr 2-yarmiga qadar arab mamlakatlaridagi o`zbeklar tarixning turli bosqichlarida bu mamlakatlarga kelib joylashdilar. Bu bosqichlarni taxminan quyidagilarga ajratish o`rinli bo`lardi degan fikrdamiz.

¹³Nurulloxon hoji Abdullaxon Qo`qondiy. Muborak haj safari- T.:Kamalak; 1991.-B.105-107

1. O`rta asrlarda „savdo-sotiq“, „sayyohlik“, „haj ziyorati“ kabi omillar tufayli muhojir bo`lib qolish bosqichi.
2. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi va mustamlaka davridagi (1867-1917-yil) muhojirlik bosqichi.
3. Turkistonda sovet hokimiyatining o`rnatilishi va mustahkamlanishi davrida, ya`ni 1917-1930-yillarda kechgan ommaviy muhojirlik bosqichi.

Arab mamlakatlarida o`zbek diasporasi (tarqalishi)ning vujudga kelishi esa, XX asr 2-yarmida yuz berdi. Bu davr talqini ham bir necha bosqichlarda tahlil va tadqiqotga muhtoj.

I.2. Muhojir o'zbeklarning ijtimoiy mavqei va mashg'ulotlari.

Sovet hukumati yillarida xorijga o'tib ketishga majbur bo'lgan o'zbeklar, jumladan, boshqa O'rta Osiyo xalqlari (qirg'iz, turkman, qozoq, qoraqalpoq, tojik) muhojir bo'lgunga qadar turli-tuman ijtimoiy mavqelarda turganlar.

Muhojirlikning dastlabki tarixiy to'lqini ro'y bergan 1917-1920- yillarda Afg'oniston, Sharqiy Turkiston (XXR) va Eron Xurosoniga ko'chgan o'zbeklar muhojirlikda ham o'z yurtlaridagi ijtimoiy mavqelarini imkon qadar saqlab qolishga harakat qilganlar. Buxoro amirligining so'nggi vakili Amir Olimxon bilan birga 1921- yil bahorida Afg'oniston yeriga uning yuzlab amaldor va a'yonlari, beklari savdogar va yirik yer va mulk egalari, dehqon va chorvadorlar, batrak va xizmatchilar o'tib ketdi. O'sha tarixiy vaziyatda Shimoliy Afg'oniston viloyatlarida istiqomat qiluvchi mahalliy o'zbeklarning asosiy qismi esa dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan.¹⁴ Afg'onistonga o'tgan muhojir o'zbeklarning bir qismi mahalliy o'zbeklar kafilligi ostida o'zlarining azaliy mashg'ulotlari bilan shug'ullanishdi. Biroq muhojirlarning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo'lib, qashshoq dehqonlar, yersiz batraklar, mayda hunarmandlar, shaharlarda mayda savdogarlar va harbiy xizmatchilar asosiy qismni tashkil etardi.

Turkmanlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib qolgan, ular afg'on viloyatlarida (asosan Andxo'y va Maymana) qo'y va qoramollarni boqqanligi uchun mahalliy hukumatlar tomonidan soliqqa tortilgandi. Ko'p sonli bo'lmasa-da, muhojir o'zbeklar va ularning farzandlari orasidan afg'on armiyasida harbiy qo'mondon va hukumatda vazirlar bor edi.

Xorijda istiqomat qilgan o'zbeklar ijtimoiy tarkibi tahlil qilinar ekan, ular orasida savdo sohasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy nufuzni tashkil qilganligi ma'lum bo'ladi. O'rtacha yoki kichik do'konlarga ega shaxslar ko'p sonli bo'lib, ular tovarlarni yirik savdogarlardan sotib olishgan.

¹⁴Hashimbekov X. Uzbeki severnogo Afg'anistana – M., 1994 -S. 23.

Shaxsiy va xususiy do`konlarda ishchi va xizmatchi bo`lib ishlaydiganlar ham ko`p. Yirik sarmoyador savdogar, katta do`kon, zavod va fabrikalarning egalari ham muhojir o`zbeklar orasidan yetishib chiqqan. 1970- yillarda muhojir o`zbek Obid Oynarulning Istanbul markazida 80-90 m² maydonga ega bo`lgan, terini qayta ishlash zavodi bo`lgan. U Yugoslaviya, Polsha, Ruminiya va boshqa mamlakatlar bilan teri-galantereya mahsulotlarini sotish haqida shartnomalarga ega edi.

„Eksport-import“ kompaniyasining vakili Abdulaziz ismli shaxs katta mavqega ega edi. U hatto Skandinaviya mamalatlari orqali SSSRga ham teri-galantereya mahsulotlarini sotgan.¹⁵ Istanbuldagi muhojir qozoqlarning 200 tacha savdo do`koni, 4 ta terini qayta ishlash zavodi, 12 ta o`rtacha kattalikdagi fabrikasi bo`lib, ularda muhojir turkistonliklar, jumladan, o`zbeklar ishlashgan. Muhojir turkistonliklar uylaridagi hunarmandchilik do`konlarida tikkan kiyim-kechaklari yirik savdo do`konlariga ega bo`lgan muhojir turkistonliklar do`koniga topshirishgan.

Muhojir o`zbeklar zich yashaydigan Saudiya Arabistonida kichik biznes bilan shug`ullanuvchi savdo sohasi vakillari ko`pchilikni tashkil etgan. Saudiya Arabistoni savdo palatasiga kiruvchi yirik transportchilar ham mavjud bo`lgan.

Hukumatning aloqa, diniy va vaqf ishlari vazirliklarida, tashqi ishlar vazirligi idoralarida muhojir o`zbek vakillari ishlashgan. Harbiy tabaqa a`zolari orasida ham o`zbeklarni uchratish mumkin. Xitoy davlatining Sharqiy Turkiston hududida istiqomat qiluvchi o`zbeklarning asosiy qismini ilmiy pedagog va ijodiy sohalar bilan shug`ullanuvchi ziyolilar tashkil etgan. Ular orasida kichik savdogar, ruhoniylar, jamoat va mahalliy hukumat organlarida faoliyat olib boruvchi kichik amaldorlar ham bor.

Suriyadagi o`zbek muhojirlari orasida turli unvondagi harbiylar, pedagog-ziyolilar, texnik-injenerlar, xizmatchilar, hunarmand-zargarlar, ustalar, fotograflar,

¹⁵ Hayitov Sh.A. O`zbek muhojirligi tarixi. T. : 2008. –B. 113.

port ishchilari va boshqalar mavjud edi. Mehmonxona va restoranlarda xizmat ko'rsatuvchilar, davlat va xususiy tashkilot korxonalarning boshqaruvchilari ham bor bo'lgan.

Iordaniyadagi o'zbeklarning deyarli barchasi savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lib, Oman Bilyadi savdo markazida shaxsiy magazini va do'konlari, savdo omborlari bo'lgan. Shuning uchun bu savdo markazi „buxoroliklar bozori” deyilgan. Hindistonda yashagan ozbeklar savdogar, dindor-ruhoniylar bo'lib, ular uncha katta bo'lmagan qahvaxona, savdo do'koni va restoranlarning egalari bo'lishgan.

Ta'kidlash joizki, 1917-1938- yillarda muhojirlikka mahkum etilgan o'zbeklarda ijtimoiy tarkibi va kelib chiqishidan qat'iy nazar, 1940-yillar o'rtalariga qadar muqobil bir mashg'ulot bilan shug'ullanish jarayoni kuzatilmaydi. Avvalo, o'z Vatanidan ajralish barobarida o'zbeklar ota-bobolaridan meros bo'lib qolgan kasb-korlari va mashg'ulotlaridan, an'anaviy turmush-tarzlardan mahrum bo'ldilar. Aytish mumkinki, yuqorida qayd qilingan salkam yigirma yillik davr muhojir o'zbeklar uchun o'zga mamlakatda yangicha shart-sharoitda o'rnatilish va moslashish davri bo'lgan. Ba'zi bir muhojirlar kasbga ega bo'lish va tirikchilik ilinjida o'nlab Sharq mamlakatlarini kezib chiqqanlar. Faqatgina XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab muhojir o'zbeklarning alohida olingan biror bir mamlakatda qo'nim topib tayinli mashg'ulot bilan shug'ullanganligi guvohi bo'lindi.

O'zbek diasporasi saflariga borib qo'shilayotgan muxojirlarning vakillari tirikchilik maqsadida ijaraga yer olib dehqonchilik qilish, gilamdo'zlik, duradgorlik, zargarlik, temirchilik kabi kasblarda o'z omadlarini sinab ko'rganlar. O'zga ellarda har bir oila hayotini saqlab qolish va yashash uchun kurashardi. Kasb-kor tanlash ixtiyoriy emas, balki tirikchilikni o'tkazish majburiyatidan kelib chiqqan.

Ilmiy izlanish olib borish barobarida, muhojir o'zbeklarning aksariyati tijorat (kichik va o'rta biznes) bilan shug'ullanadi. Tijorat atamasini ular tor ma'noda,

ya'ni bir joydan mol olib kelib ikkinchi joyda sotish, deb tushunmaydilar. Tijoratga dunyoning turli joylarida keng ma'noda savdo uyushtirish, reklama, savdo madaniyati, ta'minot va boshqa tarmoqlarni o'z ichiga olgan muayyan faoliyat sohasi sifatida qaraydilar. Muhojir o'zbeklar orasidan tijorat va ishbilarmonlik orqali firma va kompaniyalar tashkil etib, boyib ketganlar ham bor.

Saudiya Arabistonda yashaydigan o'zbeklar orasida diniy ulamolar talaygina. Diniy ilmlar donishmandi Oltinxonto'ra Muhammad Taroziy (Sayid Mahmudxon Taroziy) Saudiya Arabistonining Madina shahridagi Jome' masjidi bosh mudarrisi bo'lishi bilan birga, ushbu mamlakat tashqi ishlar vazirligida ham ishlagan.

Sayid Muhammadxon Qur'onning birinchi o'zbekcha tafsirini (arab imlosida) yozgan. Kitob 1975-yilda Pokistonning Karachi shahrida chop etilgan. Arab, fors, hind, turk tillarini puxta bilgan Taroziy Madinaga katta masjidlardan birida Qur'on tafsiridan uzoq muddat dars bergan. Saudiya Arabistoni qiroli huzurida bo'lib, u bilan shariyat masalarida muloqotlar uyushtirib turgan. „Oltinxon to'ra“ nomi ham bu shaxsga Saudiya Arabistoni davlat rahbarlari tomonidan berilgandir.

Oltinxon to'ra arab tilida „Xazoili durud bar saidul vujud“ („Payg'ambarimiz fazilatlari haqida“), „Fiqhi akbar“ („Shariat qonunlari va sharhi“); „Nur-ul-basar“ („Payg'ambar tarixi“); „Muxtasari aqoidi Islomiya“ („Islom aqidalari to'g'risida qisqacha turkiycha ma'lumot“) kabi asarlarni yozgan. „Fiqhi akbar“ Makkai-mukarrama, Madinai-munavvara diniy oliygohlarida darslik sifatida o'qitiladi.

Sayid Mahmudxon alloma Tavohiyning aqoidlari haqida yozgan „Aqidai Tavohiy“ asarini arab tilida she'riy usulda qayta tayyorlab, tarjimonlik mahoratiga ega ekanligini ko'rsatgan. Shoir sifatida uning „Majmuai qasoidi Mahmudiya“ („Mahmudxon qasidolari“ to'plami)¹⁶ she'riy kitobi bor. Musaddas, g'azal,

¹⁶ Qosimov E. Oltinxon to'ra vasiyati. // Toshkent haqiqati, 1991- yil 15- noyabr.

muxammas, ruboiy, to`rtliklardan iborat Taroziy to`plamida O`zbekistonga cheksiz mehr-muhabbat va uning ozodlikka erishuvi orzusi madh etiladi.¹⁷

Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan muhojir o`zbeklardan yana biri Fazliddin ilohiy Madina amiri bo`lgan Abdulmajid ibn Abdulazizning yaqin mulozimi va ish yurituvchilaridan biri edi. U islom dini qoidalari va islom axloqini chuqur egallagan, sertakalluf, fuqaroparvar kishi sifatida tilga olinadi.¹⁸

Saudiyalik o`zbek, iste`fodagi general Burhoniddin Marg`iloniyning ma`lumoticha, Saudiya Arabistonining qurolli kuchlarida o`zbeklardan chiqqan 15 ta general va 80 taga yaqin mayor va polkovnik unvonidagilar xizmat qilgan.<sup>19</sup> Saudiya Arabistonida maxsus harbiy xizmatda bo`lgan iste`fodagi general Abdulqodir Akbar Buxoriy 1990- yil O`zbekistonga tashrif buyurgan.

Muhojir o`zbeklar orasidan dunyoviy va diniy bilimlar bilan shug`ullangan, o`zlari yashayotgan mamlakatlarda tan olingan ziyoli olimlar, u yoki bu fan sohasidagi fan doktorlari va professorlar ham etishib chiqqan.

Arab mamlakatlarida istiqomat qilgan o`zbeklar qanday mashg`ulot bilan shug`ullanmasin, ona yurtga, milliy madaniyati mehri baland bo`lgan. „Temir parda“ hisoblangan SSSR davlatiga kirish ham, chiqish ham og`ir bo`lgan yillarda xorijdagi o`zbeklar uchun O`zbekiston haqida ma`lumot olish, chet elga tashrif buyurgan o`zbek bilan uchrashish ham katta quvonch edi. „1964-yilda xalq artisti Halima Nosirova Qohiraga, gastrol safariga boradi. Bu haqidagi xabardan ommaviy axborot vositalari orqali voqif bo`lgan saudiyalik o`zbek Abdullajon Turkistoni Jidda-Qohira marshruti bo`yicha qatnaydigan 140 o`rinli samolyotning barcha chiptalarini o`z hisobidan sotib olib Qohiraga boradi. H. Nosirovani ko`rish, o`zbek tilida aytiladigan qo`shiqlarni tinglash boylik va vaqt

¹⁷ Oltinxon to`ra vasiyati. // Toshkent haqiqati, 1991- yil 15- noyabr; Abdullayev I. Vatan ishqida yashagan olim. //Yosh leninchi. 1991- yil 27- noyabr; Qosimov E. Otajon, men qizingizman. //Toshkent haqiqati. 1991-yil 30 -noyabr, Oltinxon to`ra she`riyati. //Toshkent haqiqati, 1991- yil 27- noyabr.

¹⁸ Nurulloxon hoji Abdullaxon Qo`qondiy. Muborak haj safari. –T. Kamalak, 1991 -B. 58.

¹⁹ „Kommuna“gazetasi, 1990- yil 3- oktabr.

yo`qotishdan ustun turgan. H. Nosirova „O`zbekiya” ko`chasidan kelgan muhojir o`zbek qizlaridan ko`ylaklarini yuvib kelishlarini so`raydi. Qohiralik o`zbeklar uning ko`ylaklari o`rniga ikki libosli zamonaviy kiyimlik sovg`a qilishgan. Yuvilishi kerak bo`lgan ko`ylaklarni Misrdagi o`zbeklar ona yurt g`ubori tekkan, deb bir parchadan o`zaro bo`lib olishgan.²⁰

Saudiyalik muhojir o`zbeklardan biri Mo`minjon Andijoniy Oybekning „Alisher Navoiy” romanini arab imlosida qayta ko`chirib, o`z hisobidan chop ettirib, Sharq mamlakatlaridagi yuzlab o`zbeklar orasida tarqatdi.<sup>21</sup> Bu haqda Mo`minjon Andijoniy O`zbekistonga xabar qilib, ushbu kitobni Jo`ra Qori Bo`tako`zdan olganligi, o`qib chiqib zavqlanganligini qayd qiladi. M.Andijoniy Saudiya Arabistonidagi muhojir o`zbeklar orasida rus imlosida o`qiy oladiganlar yuzdan bir foizni ham tashkil qilmasligi uchun ushbu vazifaga kirishganligini uqtiradi. Demak, maqsad o`zbeklarning forslashuv, arablashuv jarayonini oldini olish bo`lgan. Bu jarayon esa O`zbekiston bilan aloqalar sustligi uchun XX asr 60-80-yillarida kuchayib ketgandi.

Saudiya Arabistonida yashagan o`zbek muhojiri Sayid Mubashir Sulaymon Kosoniy Mashhad (Eron)dagi „Imom Rizo” kutubxonasidan 922- yilda Buxoro, Xiva, Boshqirdiston, Bulg`or, Xazar davlatlarida bo`lgan elchilik va savdogarlik tarixiga oid arab tilidagi „Ibn Fadlan safarnomasi”ni oladi. Ushbu kitobni o`zbek tiliga tarjima qiladi. Biroq kitobni chop ettirib, o`zbeklar orasida tarqatish uchun moddiy imkoniyat topa olmaydi. Yuqoridagi ma`lumotlar muhojir o`zbeklar milliylikni saqlab qolish uchun o`zbek tilidagi kitoblarni arab va lotin imlosida xattotlik yo`li bilan ko`chirish yoki nashr qilish orqali ko`paytirib, o`zbek jamoalariga tarqatish usullaridan foydalanganliklarini isbotlaydi. Biroq, ushbu xayrli ish moddiy qiyinchiliklar, hukumatning salbiy munosabati, ayrim shaxslarning to`squinligi kabi omillar tufayli doim ham amalga oshmasdi.

²⁰ Nurillaxon Hoji Abdullaxon Qo`qondiy. Muborak haj safari. –T. Kamalak.1991. –B. 127-129; -B. 132-133.

²¹ Hayitov Sh.A. O`zbek muhojirligi tarixi. –T.: 2008. –B. 155.

Sulaymon Kosoniyning ma'lumoticha, Madinadagi „Orifin Hikmat“ kutubxonasida O`rta Osiyo madaniyati, tarixiga oid 5 ming nusxadan ortiq kitob bor. Ular orasida Zayniddin Vosifiyning „Badoe ul vaqoe“ asari, „Muqimxon Munshiy tarixi“, „Tarixi Nodiriy“, „Samarqand tarixi“ kabi minglab kitoblar mavjud.

Muhojir o`zbeklar oz sonli bo`lishlariga qaramay xorijda mahalliy xalqlarga qo`shilib ketmadilar. Ularga o`zlari yashab turgan mamlakat xalqlarining tili, urf-odatlarini o`z ta`sirini o`tkazdi, ularga hurmat bilan munosabatda bo`ldilar. Xorijdagi umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qiladigan qoidalar qabul qilindi, lekin, eng muhimi, o`ziga xos milliylik saqlab qolindi.

Istiqlol arafasida ajdodlari yurtiga kelgan ayrim saudiyalik o`zbek muhojirlari O`zbekistonda to`y va ta`ziya marosimlarida katta miqdorda harajat qilinayotganligi, spirtli ichimliklarning ko`p istemol qilinishi, vaqtni zoye ketkazish, isrofgarchilik bilan bog`liq noxush, salbiy jihatlar haqida bir-birini takrorlaydigan fikrlarni bildiradilar. Bu borada Zuhridin Obid Turkistoniy va Sharifa Sherg`ozixon qizlar keskin fikr bildirganlar. Biroq saudiyalik o`zbeklarning to`y- ma`rakalarida ishtirok etgan o`zbekistonliklar ularda ham ma`rakalar dabdabali o`tkazilishi, 500-1000 kishilik davralar uyushtirilishi, ortib qolgan mahsulotlar to`ppa-to`g`ri „sufra“ dasturxonlar bilan axlatxonaga tashlab yuborilishi qayd etilgan.²²

Xullas, arab mamlakatlaridagi o`zbeklar orasidan hukumat organlarining rahbarlari, kichik amaldorlar, yirik, o`rta va kichik savdo bilan shug`ullanadigan biznesmenlar, maishiy xizmat ko`rsatish xodimlari, harbiylar, dehqon va chorvador, olim va jurnalistlar, texnik-xizmatchilar, pedagog-ziyolilar, ruhoniylar, super-intendentlar, hunarmand ustalar, tibbiyot xodimlari, fotograflar, oddiy ishchilar kabi turli-tuman kasb egalari etishib chiqqan. Ular orasida kichik va o`rta biznes sohasi bilan band kishilar nisbatan yuqori foizni tashkil etadi. O`zbek

²² Jalilov S. Buxoriylar qissasi. –T., 2006, -b. 184-210; Mavlon Shukurzoda. Amerikalik o`zbeklar-T.: Fan, -B. 201-205.

muhojirlarining arab mamlakatlarida tug`ilgan farzandlari Yevropa va AQSHning nufuzli oliy o`quv yurtlarida tahsil olib, zamonaviy bilimlarga ega bo`lgan yuqori malakali ziyoli xodimlar bo`lib yetishganligi ham qayd qilish lozim.

II.1. Suriyada muhojir o'zbeklarning tarixi va etnografiyasi .

Yuqorida qayd qilinganidek, Rossiya imperiyasi hukmronligi va sovet mustabid tuzumi yillarida muhojirliklar to'ldini ommaviy tus oldi. Ayniqsa, sovet tuzumining diskriminatsiyaga asoslangan, noinsoniy siyosati tufayli arab mamlaktlarida turli-tuman tabaqa(strat) va ijtimoiy guruhga mansub kishilardan iborat o'zbek diasporasi vujudga keldi. O'zbek millatiga mansub kishilarning arab dunyosi mintaqasi bo'ylab tarqalish jarayoni XIX asrda va XX asr davomida goh pasayib, goh kuchayib turuvchi ko'chishlar orqali yuz berib turdi. Sharq va Farbning o'nlab davlatlari bo'ylab tarqalgan o'zbek jamoalari ayrim davlatlarda ko'p sonli bo'lib istiqomat qilmoqda. Ayniqsa, Yaqin ,O'rta Sharq mintaqasi hamda arab davlatlarida o'zbek muhojirlari nisbatan zichroq yashaydilar.

Jamiyat, davlat, inson geografik omilning muvozanati buzilgan, sotsium o'rtasida hamjihatlik va snegretik munosabat shakllanmagan holatda muhojirliklar ommaviy tus oldi. Bu jihatlariga siyosiy-huquqiy, moddiy-ma'naviy, diniy-milliy, ma'muriy kabi ko'pdan ko'p omillarni qo'shish mumkin. Xullas, asl vatanlariga qanchalik mustahkam bog'langan bo'lmasin o'zbeklar ham umumjahoniy voq'eilik hisoblangan diaspora jarayonidan chetda qolmaganliklari oldingi bobda qayd etilgandi. Yaqin va O'rta Sharq uzoq yillardan buyon „mojarolar kelib chiqishiga moyil“, boisi hech qachon beqarorlikdan chiqmaydigan joyga aylangan, mutassil urush, diniy etnik to'qnashuvlar, xavfli terroristik hujumlar markaziga aylangan. „Katta Yaqin Sharq“ siyosati „Katta shaxmat taxtasi“ (Z.Bjezinskiy-AQSH) g'oyalariga tayanib qoldi.²³ Salkam 70 yildirki urushlar girdobiga tortilgan Yaqin Sharq, asosan arab mamlakatlari „katta o'yin“ maydoni sifatidagi hudud ekanligi isbot talab qilmaydi.

Uzoq bo'lmagan tarixga nazar solsak, „arab bahori“(2011- yil 15- mart) voqealari oqibatida kelib chiqqan harbiy to'qnashuvlar tufayli bir qator arab mamlakatlari, ya'ni, Saudiya Arab Respublikasi, Yaman, Misr Arab Respublikasi

²³ Jakbarov M., Abbasova SH. Milliy g'oya va milliy manfaatlar (ilmiy-ma'rifiy adabiyot)-T.:„Sano Standart“; 2014.-B.17-18.

225 milliard dollar zarar ko`rdilar. AQSH va G`arb mamlakatlarining Suriya Arab Respublikasiga qaratilgan siyosati tufayli ushbu yilda qancha tinch aholi mislsiz moddiy-ma`naviy yo`qotishlarga duchor bo`ldi. Mamlakat, shahar va qishloqlaridagi yuzlab binolar, korxona va uy-joylar vayronaga aylandi. Holbuki, donor mamlakatlar (ushbu tashkilot markazi Germaniyaning Bonn shahrida joylashgan) uyushmasi arab dunyosiga bor-yo`g`i 3,5 - 4 mlrd AQSH dollari miqdorida moddiy yordam mablag`i ajratishga qaror qildi xolos. Bu ko`rilgan moddiy zarardan salkam 100 barobar kamdir.

Suriya Arab respublikasidagi siyosiy vaziyat haqida bir qadar fikr yuritishdan maqsad, bu mamlakatda tub joy aholi bilan birga, XIX asrning birinchi yarmida va undan oldingi asrlarda XX asr birinchi yarmida turli sabablar tufayli kelib qolgan, hozirda muqim yashayotgan muhojir o`zbeklarning avlodlari ham qayd qilishdir.

Suriyaga o`zbek xalqi vakillari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida „haj ziyorati“, „savdo-sotiq ehtiyoji“, „tirikchilik ilinji“, „tub burilishga molik siyosiy voqeliklar“(qo`zg`olon, to`polon va hokazo) oqibatida borib qolganlar. U paytlarda Suriya shaharlaridagi o`zbeklar kam sonli bo`lib, muhojirlar asosan tijorat bilan shug`ullanishgan. Sovet hokimiyati yillaridagi muhojirlikning ommaviy oqimi tufayli bu mamlakatdagi o`zbek jamoalari soni ko`payib borgan. Manbalarda va adabiyotlarda Suriyadagi o`zbek muhojirlari, ularning soni, ijtimoiy tarkibi, mashg`ulotlari, dastlabki uyushma va tashkilotlari haqida qimmatli malumotlar keltiriladi. Bu mamlakatdagi o`zbek muhojirligi bilan bog`liq adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko`rsatadiki, Suriyadagi o`zbeklar soni yillar davomida o`zgarib turgan. O`zbek jamoalari bu mamlakatda goh ko`payib, goh kamayib turishi esa, bir qator omillar bilan bog`liq<sup>24</sup>. Birinchidan, Ikkinchi jahon urushidan so`ng Yaqin Sharqning Isroil-arab mamlakatlari bilan harbiy to`qnashuvi hududiga aylanishi(1947-1949 yy; 1967 yy; 1973 yy), bu mintaqada qurolli mojarolar goh avj olib, goh pasayib uzluksiz davom etishi kabi omil o`zbeklarning boshqa mamlakatlarga ko`chishlariga sabab bo`lgan. Ikkinchidan, Suriya Arab

²⁴ Hayitov Sh. va b. Xorijdagi o`zbeklar. –T: Fan; 1992. –B.42.

Respublikasi tashkil topganidan(1958- yil) so`ng, ko`plab mustaqillikka erishgan arab davlatlari singari bu mamlakat milliy hukumati tomonidan har qanday milliy uyushma va tashkilotlar faoliyati qonun yo`li bilan ta`qiqlab qo`yildi. Uchinchidan, tijoratchi, xususiy tadbirkor o`zbeklar –SAR fuqarosi bo`lsada, boshqa mamlakatlarga ko`chib, o`z mashg`ulotlari bilan shug`ullanishlarini ham nazardan qochirmaslik kerak.

O`zbek muhojirligi to`lqinlari yuz bergan yillarda (1917-1924yy, 1925-1933 yy, 1939-1945 yy) Suriya davlatining Lakatiya, Damashq kabi shaharlariga ko`p sonli o`zbeklar ko`chib o`tganlar.

1920-1930-yillarda Suriyaning Shom viloyati va mamalakat poytaxti Damashq shahrida 4-5 ming sonli o`zbeklar istiqomat qilganlar. Damashqda o`zbeklarning „Moddiy ahvoli og`ir bo`lgan buxorolik(turkistonlik)larga yordam jamiyati” faoliyat yuritgan. Ushbu jamiyatga uyushgan o`zbeklar moddiy ahvoli og`ir bo`lgan millatdoshlariga yordam ko`rsatish, madaniy-ma`rifiy ishlar bilan shug`ullanish, yakshanbalik ona tili kurslari ochib, bolalarga o`zbek tilini o`rgatish kabilar bilan shug`ullanishgan. Ushbu tashkilot 1958-yilda tugatilgan. Shuningdek, Damashq atrofidagi Jomi al-Ahzamda, diniy maktab bazasida „O`zbeklar yordamlashma jamiyati” ham 1940-1956- yillarda faoliyat yuritgan. Ushbu jamiyat vatandoshlarini qo`llash bilan birga, milliy til, milliy urf-odatlarni yo`qotmaslik uchun bir qator amaliy tadbirlarni amalga oshirgan.²⁵ Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki, Suriyadagi o`zbeklarning milliy uyushmalari moddiy qiyinchiliklar, a`zolar o`rtasidagi o`zaro kelishmovchiliklar, ular boshliqlarining boshqa mamalakatlarga ko`chib o`tishlari, shuningdek, hukumat tomonidan chiqarilgan qonunlar tufayli tugatilgan. Biroq, ular faoliyati izsiz ketmagan, bu kabi uyushmalar muhojir o`zbeklarda va ularning xorijda tavallud topgan farzandlarida milliy til, milliy o`zlikni saqlab qolishlarida ahamiyatli bo`lgan. O`zbek oilalarida o`zbekona urf-odat va an`analar yashovchanligini ta`minlagan.

²⁵ Hayitov Sh. va b. o`sha kitob.-B.45.

SARdagi o`zbeklar soni vaqt-vaqti bilan o`zgarib turganligini yuqorida qayd qilgandik. Bir manbada SARda 4 ming sonli o`zbek muhojirlari istiqomat qilgan, ular asosan Damashq shahrida, shuningdek, Shom viloyati, shahar va qishloqlarida jamoa bo`lib yashashadi"- deb ma`lumot berilsa, 1989-yilda, SARda 1 ming kishidan iborat o`zbeklar yashashadi, asosiy o`zbek jamoalari poytaxt Damashqda markazlashgan, mamlakatning Aleppo va Latakiya shaharlarida ham o`zbek aholi markazlari mavjudligi"- qayd etiladi. 1998- yildagi ma`lumotda : „SARda 500-600 tacha o`zbeklar istiqomat qiladi. Qo`shni Urdun(Iordaniya)da esa 35 oila o`zbeklar bor. Suriyaning o`zbeklari Damashqda markazlashgan, Urdunlik o`zbeklar Ommon va Irbid shaharlarida o`rnashgan"-deb ma`lumot beriladi. SARda istiqomat qilgan o`zbeklar soni yillar o`tib borishi bilan kamayib borganligi kuzatiladi.

O`zbeklarning dunyo bo`ylab tarqalish jarayoni hamon davom etayotganligi, millatdoshlarimiz tinch va osuda joy izlab, G`arb va Sharqning yuksalgan davlatlariga ko`proq ko`chib o`tganligi Suriyada ular soni kamayishiga sabab bo`lgan.

Ta`kidlash joizki, Suriyadagi o`zbeklarning katta qismi tijoratchi, o`rta hol dokondor, xususiy tadbirkorlik bilan shug`ullanadilar. Biroq ular oarsida turli rutbadagi harbiylar, pedagog ziyolilar, jurnalistlar, olimlar, diniy ulamolar, texnik muhandislar, xizmatchilar, hunarmand-zargar ustalar, mehmonxona va qahvaxona boshqaruvchilari va xodimlari, fotograflar, port ishchilari, vrachlar va boshqa kasb egalari bor.²⁶

1990-yilda ijodiy safar bilan SARga borgan o`zbekistonlik shoira Umida Abduazimova, 1990-yil 7-iyundagi „Vatan mehri” ruknidagi radio eshittirishda, Damashq markazidagi do`konlardan birida:„Samarqand”, deb yozib qo`yilganligi, ushbu rastada savdo-sotiq qiluvchi aka-uka o`zbeklar bo`lib, ular ota-bobosi O`zbekistondan ekanliklarini xotirlaganlar. Suriyalik o`zbek yigitlari shoira bilan o`zaro suhbatda:„Hamma narsamiz bor, otamiz ham, bobomiz ham o`tgan yili(1989-yil) vafot etdilar. Har ikkovlari ham 20 kundan o`zlarini bilmay yotdilar.

²⁶ Abduazimov 69. Vatan mehri:Suriyaga safar//Xalq so`zi,1990-yil, 5-oktabr.

Hali yoshlikdagi do'stlari bilan suhbatlashdilar, hali xayollarida shiftga in qo'ygan qaldirg'ochlar haqida qayg'urdilar... otamning oldilariga kirib kim bilan gaplashdingiz dada, bu yerda hech kim yo'q-ku dedim. Ular esa meni jerkib berdilar: „Nega yo'q bo'larkan, qara ko'chamizdagi tut daraxtini. Bolalar terib yesin ularni, chodir solib qo'y. Ana ertangi o'rik ham oqarib qolibdi. Otam bilan bir paqir terib amakimnikiga olib boramiz. Amakim menga yong'oq qoqib beradilar. Xullas, Samarqandda yurdilar, shu kunlarda Samarqandni, samarqandliklarni ko'rdilar. Bobom ham shunday”, bir kun borib ko'rasizlar Samarqandni, o'shanda bilasiz bobongiz ham, otangiz ham tug'ilgan joylarning qanday jannatligini”- deb jon taslim qildilar²⁷. SARdagi o'zbekalar o'zbek tilini, o'zbekona xususiyatlarini saqlab qolishi bilan birga, ajdodlari mehnati va farzandlarga e'tibori tufayli O'zbekistonga mehr-muruvvatni ham o'z vujudlariga singdirdilar. Ushbu mamlakatda tavallud topgan o'zbek muhojirlaridan birining farzandi Burxon al-Buxoriy – jurnalist, filolog olim, professor martabasiga erishgan. U shaxsiy uyining teng yarmini ilmiy kutubxona, qolgan yarmini esa ilmiy kompyuter markazi qilib olib, 1970-1980-yillarda 10-12 ta shogirdi bilan o'zbek adiblari asarlarini kompyuter dasturiga joylashtirgandi. Olim Hazrat Alisher Navoiyning ayrim asarlarini, aruz vaznini yo'qotmagan holda, arab tiliga tarjima qilib, o'zi tuzgan transkripsiya yordamida kompyuterga kiritib, kompyuter ingliz va nemis tillariga tarjima qilgan materiallarni Yevropa tillariga tarjima qilishda ko'p kuch sarfladi. Burxon al-Buxoriy ortda qolgan yillarda ajdodlari yurti O'zbekistonda bir necha bor bo'ldi. U „Arab o'zbek lug'ati”ni yaratdi. Yurtimizdagi bir qator matbuot organlari va ilmiy muassasalar bilan sharnomalar tuzdi.

O'zbekistonga qilgan ijodiy –ilmiy safarlaridan birida professor Burxon al-Buxoriy ajdodlar yurtiga o'z mehr-muhabbatini ifodalab: „Ey, mening vatanim! Mana bir o'g'loning bag'ringga qaytib keldi. Sevinchidan u ona bag'riga otilgan go'dakday, quchog'ingga otildi. Ammo, shunisi ajoyibki, bu farzandning ko'zi seni

²⁷ Vatanni qo'rsab:// Xalq so'zi: 1990-yil 7-iyun.

nuringni olib ochilmagan; qo'llari tuprog'ingni paypaslab emaklamagan, mitti qadamlari senda atak-chechak qilmagan, o'pkasi havoyingdan bahramand bo'lmagan. Ammo u sening farzanding edi! Ey, Vatan! Sen avvalo o'zingda mana shu „Vatan” degan ma'noni jamlab, qalbinga tuyg'u bo'lib o'rashib olding, keyin misoli osmondagi nurday vujudimni qoplading, shu tariqa badan-badanimga singib ketding, qonimga o'rashib olib, unga o'z mehringni bosding. Shu tariqa sen o'z tabiatining , shaklingni menga va men orqali bolalarimga berding”²⁸-kabi qalb izhorini bildirgandi.

Andijonlik muarrix olim Sayfiddin Jalil o'zining muhojirat tarixiga bag'ishlangan kitobida Burxon al-Buxoriyning 1989-yil oktabrda yozilgan „Vatan tuyg'usi(nasriy she'r) essesi matnini keltirgan. Unda Vatan (O'zbekiston) ga ilk qadami tekkan Burxon al-Buxoriyning sekin-asta otamning bu yerlarda yurganlari ko'z oldimda gavdalana boshlaydi, keyin uning ruhi etimga o'rashib oladida, men bilan birga tepalikda ham, vujudimda ham, o'ng-u so'limda ham, huv ana ro'paramda ham kezishga tushadi; so'ng sevgi rang-barang tovlana boshlaydi, u xuddi daraxt soyasini omonatga qarz olib turganday ajib manzara yaratadi. Ko'z oldimda otam emaklayotganday, u xuddi atak-chechak qilib ketayotganday, uning yurishi, yugurishi, maktabiga kitobini ko'tarib ketishi, sabza mo'ylabini siylashi, burashi gavdalanadi, ana, go'dak otam, ana o'smir, yigitligi va musofirlikdagi qariya, shu lahzada 80 yoshlik otam umri bir lahzada lip etib o'tib ketadi. Endi bilayapman, tarix - bu kitobda o'qiyotganimiz voqealar yoki xotiralarda eslab qolinadigan narsa emas, balki u otamning o'zidir, balki u tarix ojizligi, kuch-g'ayrati, sevgi-muhabbati, qayg'u-g'ami va orzu tilaklariga to'la bo'lgan insonning o'zi bo'lishi mumkin! Mana shunday insonlarning hayoti jamlanib, tarixiy kitoblar yaratiladi”²⁹-kabi so'zlarida falsafiy mushohada va mantiqqa yo'g'rilgan fikrlar mujassam.

²⁸ Vatan izhori.1999-yil 5-oktabr//O'zbekiston adabiyoti va san'ati;1984-yil; 27-aprel.

²⁹ Sayfiddin Jalil. Buxoriylar qissasi(Muhojirat tarixidan lavhalar) – T.:2006.-284 bet.

1950-1980-yillarda muhojirat o'zbeklar sovet mafkurasi asosida baholanib, „sotqin“, „Vatan xoini“ deb qaralgan paytlarda SAR va SSSR munosabatlaridagi iliqlikdan foydalanib, turli mamlakatlardagi o'zbeklar ota –bobolari yurti-O'zbekistonga Sovet Ittifoqining Suriyadagi elchixonasi yordamida tashrif buyurib, qavm-qarindoshlari bilan yuz ko'rishganlar. Arxiv hujjatlarida SSSRning Damashqdagi elchixonasiga bu borada murojaat qilinganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. „SSSRning Damashqdagi elchisi N.A.Muhitdinovga! Turkiya fuqarosi hisoblangan vatandoshimiz Jo'ra Qori Surgun (Bo'tako'z) O'zbekistonga, oktabr-noyabr oylarida (1968-yil) 15 kun muddatga kelish uchun chaqiruv qog'ozi olgan. Biroq hozirgi holatda u Turkiya orqali safarga chiqa olmaydi. Jo'ra Qorining Turkiyadagi sovet elchixonasi orqali hujjatlarini rasmiylashtirib, O'zbekistonga jo'natishga amaliy yordam ko'rsatishingiz so'raladi. U yurtimizga (UZODKS) mehmoni sifatida tashrif buyurmoqda” – deyiladi manbalarda. Jo'ra Qori Bo'tako'z (Bu shaxsning „Surgun“, „Ola qarg'a“ laqablari bo'lgan). 1970-1980-yillarda UzODKSning „Vatandoshlar bilan aloqa bog'lash bo'limida mushovir bo'lib ishlagan. Shuningdek, mustaqillik arafasida, 1990-yil o'rtalarida to'qqiz nafar suriyalik „buxoriylar“ Sovet mutassadi idoralariga madaniy-ma'rifiy yordam berishlarini so'rab maxsus talabnoma bilan murojaat qilganlar. O'zbekiston fuqarosi Abdulloh Yusupovga ushbu talabnomani suriyalik o'zbek Yosir Buxoriy topshirgan.³⁰

Talabnomada: „Biz Suriyada yashovchi o'zbek farzandlari Sizlarga talabnoma taqdim etib o'z farzandlarimizga ona tilini o'qitish ishlarida madaniy yordam berishlaringizni so'raymiz. Koshki, bu o'zbekistonlik qondoshlarimiz bilan aloqani mustahkamlashga bir vosita bo'lsa; Biz bu talabimiz sababini quyidagicha bayon etamiz. Bu yerda o'zbek tilini birovga o'rgatish darajasida biladigan kishi yo'q.

Ko'p sonli, o'zbek tilini o'rganish istagida yurgan o'zbeklarni nazarda tutib, Damashqdagi sovet madaniyat markazida rus tili o'qitilayotganligi kabi shu

³⁰ Yusupov X. Xorijdagi o'zbeklar//Yoshlik., 1989. N 1-2. –B.21.

markaz qoshida o`zbek tilini o`qitish kurslarini ochib berishlaringizni iltimos qilamiz. „Agar madaniyat markazida o`zbek tili kursi ochilsa, kelajakda O`zbekiston bilan aloqalarimizni mustahkamlab, o`zimizning shaxsiy sarf-xarajatlarimiz hisobiga farzandlarimizni O`zbekistonning oliy davlat ta`lim dargohiga yubormoqchimiz. Hozirgi paytda biror kishi Toshkentga safar qilmoqchi bo`lsa, juda ko`p to`siqlarga duchor bo`ladi. Bir amallab u yerga borgan chog`ida ham, o`zi xoxlagan biror ilm dargohida tahsil ololmaydi”³¹- kabi fikrlar bildirilgandi.

Talabnoma ostida SARlik o`zbeklardan: Abdulhamid, Abdullatif, Abdulmajid, Burxon, Muhammadamin, Abdulhafiz, Abdulaziz, Abdulkarim, Farrux Buxoriylar imzo chekishgandi.

Suriyadagi o`zbeklarni SAR va Saudiya Arabistonidagi o`zbek bolalarining „arablashuvi” jarayoni tashvishga slogan. Shuningdek, O`zbekistondan o`zbek tilini o`rgatadigan darslik, o`quv-qo`llanmalar, o`qituvchilar yuborish, farzandlarini ota-bobolari yurtidagi o`quv yurtlarida o`qitish orqali madaniy-iqtisodiy aloqalar o`rnatish maqsadlari kuchlilik qilgan. Ular SSSRda esgan „demokratiya shamoli” tufayli O`zbekistonga erkin kirib-chiqish, „temir qafas”ni oilb tashlash, qavm-qarindoshlik aloqalarini o`rnatish orqali o`zlikni saqlab qolishga harakat qilingan.

Arxiv hujjatlarida SSSRda mavjud bo`lgan yillarda UzODKSning „Vatandoshlar bilan aloqa bog`lash bo`limi (1963-1976 yy) keyinchalik „Vatan” jamiyati (1976-1992-yy) vositachiligida muhojir o`zbeklarning barmoq bilan sanarli farzandlari O`zbekiston oliy o`quv yurtlarida tahsil olganligi bilan bog`liq ma`lumotlar uchraydi. „1987-1988 o`quv yilida O`zbekiston oliy o`quv yurtiga 1 nafar Suriya fuqarosi bo`lgan o`zbek farzandi o`qishga qabul qilindi. Shu davrda suriyalik o`zbek vatandoshlardan Muhammad Abdul Sattor Buxoriy o`z dissertasiyasini himoya qildi, Jihod al-Buxoriy esa „Ko`krak xirurgiyasi

³¹ Hayitov Sh. va b. Xorijdagi o`zbeklar. –T: Fan; 1992.-106 bet.

instituti”da ilmiy stajirovkadan o`tdi”-deyiladi. Ikkinchi bir hujjatda „Vatan” jamiyatining kvotasi bilan Toshkentdagi oliy o`quv yurtlarida 1978-yilda 3 ta talaba (2 tasi Afg`onistondan, 1 tasi Suriyadan); 1979-yilda 2 ta (Suriya va Urdundan 1 tadan); 1980-yilda 3 ta (Urdun 2 ta, Suriya 1 ta ); 1981-yilda 1 ta (Suriya)” xorijdagi o`zbek tahsil olganligi aniqlandi.

Suriya Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Urdun (Iordaniya), Yaman kabi arab mamlakatlarida yashagan va hozirda istiqomat qiluvchi o`zbeklar „buxoriylar” deb ataladi. Ular O`zbekistonning qaysi viloyat yoxud shahridan kelib chiqqan bo`lmasin, (Farg`ona, Andijon, Samarqand, Qarshi, Termiz va hokazo) o`zlarini „Buxoriy” deb, tanishtiradilar. Birinchidan, „Buxoro” atamasi uzoq vaqt „Turkiston” atamasi bilan bir ma`noda qo`llanilib kelinganligi va butun bir mintaqaga ma`nosini ifodalashi bo`lsa, ikkinchidan ular buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriy (810-870 yy) vatanidan ekanliklari, arab dunyosida „buxoriylar”ga oliynasab, oliyjanob insonlar sifatida alohida hurmat ko`rsatilishidir.

Istiqlol yillarida Suriya Arab Respublikasida istiqomat qilayotgan o`zbeklarning orzu va armonlari ushaldi. Ular mustaqillikka erishgan ota-bobolari yurtiga erkin kirib kelish, tijorat va biznes rejalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Ular farzandlari o`z istak va xoxishlari bilan cheklanmagan miqdorda O`zbekiston oliy o`quv yurtlarida tahsil olishlari mumkin bo`ldi.

SARda yashagan o`zbeklar va ularning bugungi avlodlari tarixini istiqbolda atroflicha o`rganish uchun quyidagi ilmiy vazifalarni bajarish kerak deb, hisoblaymiz.

-muhojir o`zbeklarning Suriyadagi milliy uyushma va jamiyatlari tarixi, ular yo`lboshchilari amalga oshirgan ishlarning tarixiy tajribasini keng tadbqiq qilish zarur

-Suriya o`zbeklarining etnografiyasini O`zbekiston o`zbeklari bilan qiyosiy tahlil qilish kerak, ularda to`y va ta`ziya marosimlari Buxoro vohasi, Toshkent

vohasi va Farg`ona vodiysidagi an`analarning qo`shilgan hamda o`zaro transformatsiyalashgan ko`rinish olgan. To`ylar toshkentcha va farg`onacha qoidalarda o`tkazilsa, kelin-kuyov seplari masalasida buxorocho hamda samarqandcho odatlar qo`llaniladi.

- Suriya Arab Respublikasidagi o`zbek diasporasida avlodlar almashinuvi natijasida milliy o`zlikni saqlab qolish bilan birga arablar hayotidan ham istifoda olish jarayoni kechdi. Ushbu bir asrdan ortiq davrda yuz bergan o`zgarishlarning sabab va omillarini ham tahlil qilish zarurati seziladi.

-Bu mamlakatdagi o`zbeklar orasida dunyoviy va diniy ilm bilimdonlari: olim, shoir va ulamolar kam sonli bo`lsada mavjudligini inobatga olib, ular ilmiy merosini o`rganish, targ`ib qilish ham foydadan xoli bo`lmasdi.

- Suriya Arab Respublikasidagi o`zbeklarga O`zbekistondan o`zbek tilidagi darslik va qo`llanmalar, gazeta va jurnallar, badiiy asarlar, o`zbek qo`shiq va musiqalar yozilgan disk va videovizuallar, Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi tarixiy shaharlar tasviri tushirilgan, me`moriy obidalar aks ettirilgan maxsus bukletlar yuborib turish orqali ularda milliy o`zlikni hamda milliy mentalitetni asrab qolish muhimdir.

II. 2. Saudiya Arabistonidagi o`zbek(turkistonliklar) tarixi va ular da kechgan etno-sotsial jarayonlar

Musulmonlarning muqaddas shaharlari bo`lgan Makka va Madina ziyorati islom dinining arkonlaridan biridir. Saudiya Arabistoni (1932-yildan shu nom bilan ataladi) davlati hududida joylashgan bu sharif shaharlarga har yili 3 million musulmon haj ziyorati uchun boradi. Mamlakat xazinasiga hojilar hisobidan bir yilda 8-10 milliard AQSH dollari miqdorida daromat tushyapti.

Islom dini Arabiston yarim orolida vujudga kelib, ilk bor o`sha hududda targ`ib qilingan bo`lsada, islom ma`naviyati va diniy ilmlar biz istiqomat qilayotgan mintaqada o`zining yuqori cho`qqisiga ko`tarildi. Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Abduqodir Marg`inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G`ijduvoni, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy kabi ulug` insonlarning ta`limoti yer yuzidagi 120 mamlakatda yashovchi millionlab musulmonlar orasida yuksak hurmatga sazovordir.

O`tgan asrlarda taxtdan ag`darilgan yoki hukmdorlik rutbasidan tushgan xon va amirlar islom dinining farzlaridan biri bo`lgan Makka va Madina haji safariga otlanganlar. Ularning ba`zilariga haj ziyorati nasib etgan, ba`zilar yo`ldayoq dushmanlari tomonidan mahv etilgan, ba`zilar esa, qaytishda o`zga yurtlarda hayot bilan vidolashgan. Ulug`bekmirzo, Komronmirzo, Nodirmuhammad, Xudoyorxon kabilarning tarixiy taqdirini eslasak fikrimiz yanada oydinlashadi. Qo`qon xonligining so`nggi hukmdori Xudoyorxon 1877-yilgi Orenburg shahridagi tutqunlikdan qochib, Buxoro amirligiga o`tib, Qobul- Bombay-Bog`dod yo`nalishi orqali Makkaga yetib kelgan. Haj farzini ado etgandan so`ng, Bog`dodga qaytib bir qadar yashagan Xudoyorxon Londonda(Angliya) qirolicha Viktoriya huzurida bo`lib, 12 ta chet el mamlakat vakillari ishtirokidagi kengashda o`zining arz-dodini bayon qiladi. Lekin London -Peterburg muzokaralari natijasiz tugagach, ona yurtiga qaytmoqchi bo`ladi. „1882-yil Hirot shahri(Afg`oniston) yaqinidagi Karrux

qishlog'ida o'pka kasalligidan og'rib musofirlikda vafot etdi. Hirot begi Qunduzxon uning hamyonidagi 100 tilloni ham olib qo'ygan "³².

Haj safari nasib etmagan hukmdorlar va badavlat turkistonliklar Makka va Madina shahrida xayrli ish qilib nom qoldirish maqsadida biror –bir savob ishni bajarganlar. Bu o'rinda ashtarxoniy hukmdor Imomqulixonning(hukmronlik yillari 1611-1642-yillar) Madina shahrida chorbog', Makkadagi Ka'ba kiraverishdagi darvozasida oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdirganligini eslash mumkin. „XIX asr oxiri XX asr boshlarida mashhur mahalliy sanoatchi boylardan bo'lgan andijonlik Mirkomil Mirmo'minboy hoji o'zining otasi (1860-1919-yillar) Mirnodirboy Hojiyev vafoti oldidan 15 farzandiga merosini taqsimlab turib, bir niyat bilan 30 ming so'm ajratganini, bu mablag' hisobiga Makka va Madina shaharlarida bir musofirxona bunyod etishini vasiyat qilgan"³³.

Chorizm mustamlakasi davrida ham Turkiston o'lkasi musulmonlari Makka va Madina hajiga borib turgan. 1880-1900- yillarda o'rtacha hisobda har yili 3-5 ming sonli turkistonliklar haj ziyoratiga borar edi.

Haj ziyoratiga borgan millatdoshlarimizdan ayrimlari tijorat qilish va boshqa sabablarga ko'ra Arabistonda muqim yashab qolishgan. Ba'zi hollarda mustamlaka Turkistoniga qaytmaslik maqsadida vatan sifatida biror –bir Sharq mamlakati tanlanardi. Lekin, bu kam uchraydigan holat bo'lib, Arabistonda „o'zbek diasporasi"ning vujudga kelishi sovet tuzumining noinsoniy siyosati va mislsiz qatag'onlar bilan bog'liqdir.

Sovet jamiyatida ziddiyatlarga to'la, XX asrning 20-30-yillarida o'zbek millati vakillaridan ming-minglab kishilar xorijiy mamlakatlarga, jumladan Arabistonga chiqib ketishga majbur bo'lganlar.

³² Akmal Akrom. Xudoyorxon qanday o'lgan? „Turkiston", 1992 yil 18 fevral.

³³ Akmal Akrom. Mirkomilboy qanday shaxs edi? „Sharq yulduzi" 1992 yil.5-son,89-bet; Xurshid davron.O'z hukumati qolipiga sig'magan boy. O'sha joyda, 98-101-betlar.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, Arabistonga borib qolgan o`zbeklar asosan, avval, Afg`oniston va Xitoy Xalq respublikasi hududida yashaganlar. Arxiv hujjatlarining ma`lumoticha „XX asr 60- yillarida Saudiya Arabistoni va Misr Arab Respublikasida 37 ming sonli turkistonliklar yashagan”.³⁴ Manbalarda o`zbek, tojik, turkman, qirg`iz, qozoqlar birgalikda bir nom bilan „turkistonliklar” deb ataladi. Yurtdoshlarimiz o`zlarining ism-shariflariga u yoki bu shaharlarimizdan birini qo`shib aytishgan. Shuning uchun ular „Buxoriy”, „Farg`oniy”, „Andijoniy”, „Samarqandiy”, „Marg`iloniy”, „Nasafiy”, „Namangoniy” deb o`zlarini tanishtirishlari bejiz emas.

Ko`p hollarda esa vatandoshlarimiz O`rta Osiyodan ekanliklarini bildirish maqsadida „Turkistoniy”, „al-Buxoriy” nomlarini o`z ism-shariflaridan keyin qo`shib qo`yadilar.

Islom dunyosida Imom al-Buxoriyning mavqei va obro`lari shu qadar balandki, O`zbekistondagi qaysi go`shadan yurtdoshlarimiz kelib chiqmasin, ularni „Buxoriylar” deb atashadi. Saudiya Arabistonida ham „Buxoriylar” ko`pchilikdir.

Avvalo, hozirda Saudiya Arabistonidagi o`zbeklar soni haqida bir oz mulohaza bildirib o`tsak. Biz uchratgan kitob va maqolalarda ular haqida turlicha ma`lumot beriladi.

„Muborak haj safari” kitobining muallifi Nurilloxon Hoji Abdulloh o`g`li „Saudiyada 400 ming atrofida o`zbeklar yashaydi”<sup>35</sup> ,-deb yozadi. Saudiya Arabistoni fuqarosi, muhojir o`zbek, marhum Abdulvohid Yassa: „Jon ketar, vatan ketmas” maqolasida: „Bu mamlakatda 350 ming o`zbek, qozoq, turkman va tojiklardan iborat turkistonliklar bor”<sup>36</sup> ,-deb qayd qiladi. Ba`zi ma`lumotlarda 500 ming, 700 ming o`zbeklar Saudiya Arabistonida yashashi haqida xabar beriladi.

³⁴ O`zbekiston respublikasi MDA. 2661 f, 1yo, 233sh, 6-7 betlar.

³⁵ Nurilloxon Hoji Abdullaxon Xo`qandiy „Muborak haj safari”, Toshkent, „Kamalak”, 1991-yil 25-bet.

³⁶ Abdulvohid Yassa. Jon ketar, Vatan ketmas. „Guliston” 1996-yil, 3 son, 15-bet.

XX asrning birinchi yarmida Saudiya Arabistonida o`zbek vatandoshlar soni Afg`oniston, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarga nisbatan oz bo`lganligi tarixiy haqiqatdir. Biroq bu mamlakatda turmush darajasining ko`tarilishi, „Buxoriy”larga imtiyozlar berilib, soliqlardan tarxon qilinislari, tijorat uchun qulay shart-sharoit yaratilishi, muqaddas shaharlar Makka va Madina hajiga borgan yurtdoshlarimiz bilan diydorlashuvga ehtiyoj kattaligi, musulmonchilikning farzlaridan biri haj maqsadi kabi sabablar tufayli millatdoshlarimiz bu yerda ko`proq to`planganlar.

Saudiya Arabistonidagi o`zbeklar ijtimoiy ahvollarini jihatidan turli pog`onalarga turadilar. Ularning aksariyati tijoratchilar bo`lib, asosan mamlakatning markaziy shaharlari hisoblangan Madina, Makka, Toif, Ar-Riyod shaharlarida yashashadi.

Yurtdoshlarimiz orasida vazirlar, generallar, diniy va dunyoviy ilmlarning bilimdonlari, professorlar ham bor. O`zbek vatandoshlar Madina-Munavvara shahrida o`zlarining hisoblaridan „Andijon bog`chasi”, „Chust takyasi” deb ataladigan musofirxonalarga asos solganlar. Bugungi kunda haj safarini ixtiyor qilgan vatandoshlarimiz ulardan bahramand bo`lishyapti.

Yurtdoshlarimiz Oltinxonto`ra, Muhammad at-Tarroziy tashqi ishlar vaziri, Madinadagi „Jom`e” masjidi bosh mudarrisi bo`lganlar. Fazliddin Ilohiy esa Madina amiri Abdulmajid ibn Abdullazizning yaqin mulozimi bo`lib ishlagan. Iste`fodagi general Burxoniddin Marg`iloniyning ta`kidlashicha, Saudiya Arabistoni qurolli kuchlarida o`zbeklardan chiqqan 15 general va 80ga yaqin ofitserlar (mayor va polkovniklar) xizmat qilgan ekan.

Afg`onistondan Saudiya Arabistoniga ko`chib o`tgan vatandoshimiz Mubashshirxon Solmon Kosoniy o`zbek tilida, arab imlosida uch jildli „O`rta Osiyo tarixi” kitobini nashr qildirgan. U o`zi istiqomat qiladigan Ahbo shahridan Madinaga borib, Abdulqodir Marg`iloniyning „Maktabi Imon” kutubxonasiga qarashli matbaada kitobini chop ettirgan.

Yoqubxo`ja Yo`ldosh Mahjuriy „Til yo`rig`i” kitobi muallifidir. Diniy ilm sohasida Makkadagi Um-ul qaro universiteti professori, doktor Muhammad Said Hasan, doktor Umar Toshkandiy, Abdulfattoh qori Xo`qandiy, Muhammad Hasan qori, No`mon Toshkandiy singari arboblarning nomi qadrlanadi. XX asrning 30-yillarida muhojirlikni ixtiyor qilgan Abdulhakim Xalifa, Rahmatulloh Turkistoniy, Abdulloh Turkistoniy, Muhammad Salim, Nuriddin Mahsum, Muhammad Zarif, Xolid Najmiddin, Muhammad Odil, Muhammad Yusuf, Muhammad Marg`ub, Miyon Fazl Hamid, Abdulhakim Buxoriy kabi yuzlab vatandoshlarimiz ism-shariflarini sanab o`tish mumkun. Shayx Sabboq Buxoriy, Kamoliddin Toshqin kabi o`zbek shoirlari, Obidjon Turkistoniy singari tibbiyot xodimlari ham ushbu mamlakatda qo`nim topganlar. Sobiq „Vatan” jamiyati xodimi L.Ahmadxo`ja 1990-yilda Madinada bo`lganlarida : „106 yoshga to`lgan, XX asr 30-yillarida bu mamlakatga kelib qolgan Dadaxon hoji Namangoniy va u kishining 70 yashar o`g`illari Muhammad Dadaxon bilan muloqotda bo`lgan³⁷.

Imom Buxoriy yubileyleri munosabati bilan o`tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman tantanalarida ham arabistonlik yurtdoshlarimiz ishtirok qildilar.

Bu yerdagi millatdoshlarimiz arab imlosida o`qib, eski o`zbek adabiy tilida gapiradilar. Bu esa, sovet davrida ularni o`z Ona Vatanlari bilan aloqalariga to`squinlik qilardi. Ikkinchidan, „temir qafas” bo`lgan, xorijlik o`zbeklarga „dushman”, „sotqin”, „vatan xoini” nazari bilan qaragan bu tuzum ming-minglab qalblarga ozor berdi. Mamlakatlar orasida to`siq qo`yish mumkin, lekin qalblarni bir-biridan ajratib bo`lmaydi.

Saudiyada yashagan „Buxoriy”lar o`zbekona milliy urf-odat va an`analarimizni o`zbek tili va o`zliklarini saqlab qoldilar. Ular va farzandlari islomiy tarbiya asosida arab tilida tahsil oladilar, lekin oilada va o`zbek jamoalarida o`zbekcha so`zlashadilar.

³⁷ Muallifning shaxsiy muloqoti materiallari, 1991-yil 15 may.

Arabistonlik yurtdoshimiz Xalifa Ismoilij : „Avvalo shuni aytib o`tish joizki, O`rta Osiyodan borganlarni u yerda (Saudiya Arabistonida) „Turkistoniy” yoki oddiygina qilib „Buxoriy” deb atashadi”. Padari-buzrukvorimiz va volidai-mehribonlarimiz bizlarga: „Hech qachon yurtlaringni, tillaringni unutmanglar, chunki, tilni unutgan Vatanni unutadi. Vatanni unutgan esa imonni unutadi”³⁸, - degan edi suhbatlaridan birida. Otalar nasihatlariga amal qilgan yurtdoshlarimiz bir umr Ona-Vatan mehrini tuyib yashadi.

Saudiya Arabistonida yashagan vatandoshlarimizdan biri Mo`minjon Andijoniy O`zbekistonga maktub yo`llab, xatining oxirida:

„G`urbatda agar yetsa o`lim gul badanimga,

Qabrimni qazib yulsa kafanimga,

Tobutim yuksak yerga bir zum qo`yinglar,

Shoyad yetishur bo`yi Vatan bu jasadimg`a”.³⁹

to`rtligini ham ilova qilgani bejiz emas. Mo`minjon Andijoniy Oybekning „Navoiy” romanini arab imlosida qo`lda ko`chirib, o`z hisobidan ko`paytirib arabistonlik millatdoshlarimizga tekin tarqatgan.

XX asrning 20-30-yillarida Saudiya Arabistoniga borib qolgan o`zbeklarning aksariyati hayotdan ko`z yumgan. Lekin ota-bobolari muhojirlikni ixtiyor qilganlarida asosan 4-5, 8-9 yoshlarda bo`lganlar hozirgi kunda ular hayotini davom ettiryapti.

Saudiya Arabistonida istiqomat qilayotgan o`zbeklar orasida qashshoq va gadoylar yo`q. Ularni ulug` bobokalonimiz Imom –Buxoriyni ruxi-poklari qo`llaganligiga beixtiyor ishonch hosil qilasan kishi. Inchunun, Saudiya

³⁸ „Xalq so`zi”.1992-yil 20-mart.

³⁹ Sh.A. Hayitov, N.S.Sobirov, A.S.Legay. „Xorijdagi o`zbeklar”. Toshkent. „Fan” 1992-yil, 14-bet.

Arabistonida Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Farobiy, al-Beruniy, Ibn Sino kabi ulug` zotlarning nomlari e`zozlanadi, hurmatlanadi.

Mustaqilligimiz tufayli musulmonchilik farzlarimizdan biri bo`lgan haj safarini ado etish uchun barcha istovchilarga yo`l ochib qo`yildi. Ortda qolgan yillar davomida 32 ming o`zbek haj safariga bo`lib qaytdi. Jumladan, „2002- yilda 3910 nafar O`zbekiston fuqarosi Saudiya Arabistonida bo`lib, hojilik martabasiga erishdi”<sup>40</sup>. Ko`pgina yurtdoshlarimiz Arabistondagi o`z qavm-qarindoshlarini topish baxtiga muyassar bo`ldilar. O`zaro bordi-keldi va quda-andachilik munosabatlari yo`lga qo`yildi.

Prezidentimiz 1992-yilning 11-14-aprel kunlari Saudiya Arabistoniga rasmiy tashrif bilan borganlarida muhojir o`zbeklarga qarata: „Armonlar dog`i yuviladigan, yaralangan ko`ngillar jarohati malham topadigan zamon keldi. Endi sizlar bilan, taqdir-taqozosi tufayli xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalarimizni keng rivojlantirishga hamma imkoniyatlar yaratilmoqda. Endi sizlar uchun vatanningizni jami eshiklari ochiq bo`ladi”⁴¹, degan edilar. Bu muhojirlik dardiga malham bo`ladigan sizlarni millatdoshlarimiz uzoq kutishgandi. Istiqlool tufayli qo`lga kiritilgan imkoniyat sog`inchga to`la va oshufta dillarni bir-biriga tutashtiradi.

⁴⁰ E.Boliyev. Alloh dilingda, qo`ling ishda bo`lsin. „Xalq so`zi” 2002-30-avgust.

⁴¹ Taraqqiyot va hamkorlik yillarida. Toshkent. „O`zbekiston”. 1993-yil 25-bet.

III.1. Shayx Abduqodir Karomatillo Sabboq Buxoriy - adabiyotshunos olim.

Saudiya Arabistoni o`zbek( turkistonliklar) ko`p sonli bo`lib istiqomat qilayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatga millatdoshlarimiz asosan Arabiston, Eron, Xitoy (Sharqiy Turkiston ) orqali borib qolganlar. Ayniqsa Saudiya Arabistonga o`zbeklarning ko`chib o`tishi XX asr 50-60-yillarida keng tus oldi. Bu davlatning Makka, Madina, Axbo, Toior, Robig` kabi shaharlari bo`ylab tarqalib ketgan o`zbeklarning barchasi Ozbekistonni qaysi viloyati yoxud shahridan kelib chiqqan bo`lmasin o`zlarini bitta nom bilan, ya`ni „Buxoriy”, yoxud „Turkistoniy” deb atashlari taomilga kirgandi. Butun XX asrda va XXI asr boshlarida Saudiyadagi o`zbeklarning to`rtta avlod almashunivi yuz berdi. Birinchi avlod vakillari XX asr 20-30-yillarida Arabistonga borib qolganlar bo`lib, ular hozir hayotdan ko`z yumishgan. Keyingi ikki avlod (3-4- avlod) Arabistonda dunyoga keldi va voyaga yetdi. Ular ajdodlar yurtidan uzoqda dunyoga kelganligi, ota-bobolari zamini O`zbekistonni ular hikoya orqali bilishlari ayni haqiqat. „Buxoriylar”ning keyingi avlodlari orasida „arablashuv”, „forslashuv” jarayonlari kechganligini ham inkor qilib bo`lmaydi. „Buxoriylar”ning birinchi avlodlari orasida Vatan hajrida yashab o`tgan olimu-fuzalolar kam sonli emasdi. Bundaylardan Sayyid Mahmud Taroziy Oltinixon To`ra, Sayyid Mubashirxon Taroziy, sayyid Qosim domlo Andijoniy, Muhammad Yunus Namangoniy, Muhammad Muso o`g`li Turkistoniy⁴² kabilarni sanab o`tish mumki.

Shunday ulamo va fuzalolardan biri, asli buxorolik Shayx Abduqodir Karomatullo Buxoriy Sabboqdir.

Shayx Sabboq Buxoriy 1903-yilda Buxoroda yirik diniy ulamo oilasida tavallud topgan. Oilaviy muhit tufayli padari buzrukvoridan ilk boshlang`ich diniy ta`limni olgan. 12 yoshidan boshlab madrasaga qatnay boshlagan. Ushbu inson zamonasining mashhur ulamolaridan Asadullo Mahdumga shogird tushgan. Sovet hokimiyatining „xudosizlik uchun kurash” siyosati avjiga olgan 1920-1930-

⁴² qarang. Jalilov S. Buxoriylar qissasi. –T. :2006.- B.150-174.

yillarda diniy ulamolarga uzoq vaqt o`zini o`nglab ololmaydigan darajada ma`naviy zarba berildi.<sup>43</sup> Asadullo Mahdumga o`xshagan ulamolar hayoti xavf ostida qolib, ular jonlarini saqlab qolish maqsadida muhojirlikka ketishga majbur bo`ldilar. 1931-yilda Abdulqodir Karomatullo va ustozi A. Mahdum Amudaryodan gufsadlarda (yasama qayiqlarda) bir amallab qo`shni Afg`oniston davlati hududiga o`tib ketdilar. Ular dastlab ushbu mamlakatning Qunduz shahrida istiqomat qilishib, tirikchilik ilinjida ko`pgina mashg`ulotlar bilan shug`ullanishgan. 1935-yilda Abdulqodirning ustozi vafot etdi. U kishining o`limidan so`ng Shayx Sabboqning yangidan muhojirlik davri boshlandi. Buxoriy Eron, Iroqda yashadi, Bag`dod oliy madrasasida ikki yil diniy ta`lim olgan. 1938-yilda yurtdoshlaridan biriga ergashib Saudiya Arabistoniga kelib qolgan va Makkadagi „Madrasai oliya” lardan biriga joylashgan. Diniy ilmlarni puxta egallagan Sabboq 1941-yili Axbo shahriga ko`chib o`tadi va arabcha maktabga o`qituvchi bo`lib joylashadi. Besh yil bu yerda o`qituvchilik qilgach 1946-yili Qizil dengizga yaqin Robig` shahriga ko`chib o`tadi. Robig` shahriga ko`chib o`tgach, bu shaharda muqim yashab qolgan shoir, 43 yoshida arab qizlaridan biriga uylanadi. Shayx Sabboq Buxoriy 54 yil ushbu shaharda yashadi. 97 yildan ortiq umr ko`rgan ulamo (1903-2002 yy) o`z hayoti davomida qori, olim, adib, shoir, xushxulq inson sifatida o`zidan yaxshi nom qoldirdi. Olimning ikki o`g`li va uch qizi dunyoga kelib, o`g`illari davlat korxonalarida, qizlari arab mamlakatlarida muallima bo`lib faoliyat yuritishmoqda.

Shayx Sabboq Robig` shahridagi markaziy maschitda 50 yil imomlik qilgan. Yurish qobiliyati yo`qolib, 90 yoshdan oshgandan keyin, shoir uyida ilmiy va badiiy ijod bilan mashg`ul bo`lgan. Shoir 1991-yilda ajdodlari yurti Buxoroga tashrif buyurib, amakivachchalari Qudratullo, Inoyatullo, Hidoyatullo va Rahmatullolar bilan yuz ko`rishti, Vatan tuprog`ini tavof qildi. O`zi bilan birga „Sabboqi Buxoriy g`azallari” she`riy to`plamini (fors-tojik tilida) olib kelganligi esa yaxshi tuhfa bo`ldi. Ushbu she`riy to`plamdan ayrim she`rlar filolog

⁴³ qarang. Salmonov A.M. O`zbekitonda xudosizlik uchun kurash\\ FarDU, Xabarlar; 2001. – B. 67-71.

olimlarimizdan Samad Azimov va marhum Sadriddin Salim Buxoriylar tomonidan o`zbek tiliga o`girilib, mahalliy matbuotda e`lon qilindi.⁴⁴

Shayx Sabboq Buxoriy g`azallari asosan arab, fors, o`zbek tilida yaratilgan bo`lib, ularda Vatanga muhabbat, ona-yurt sog`inchi, insoniylik, ilm-ma`rifat g`oyalari tarannum etiladi.

Shayx Sabboq Buxoriyning shaxsiy kutubxonasi bo`lib, unda uning 7 ming dona nodir kitoblar saqlangan. Olim O`zbekiston musulmonlari idorasi orqali Buxorodagi „Mir Arab” islom o`quv yurtiga etti sandiq kitob topshirdi. Buxoroga yuborilgan kitoblar orasida Mir Isomiddin Roshidiyning „Shuaroi Kashmir” nomli 6 jildli asari va „Tazkirai majmuai shuaro Jahongir shoh” asarlari eng noyob kitoblardir.⁴⁵ Shuningdek, 1905-1907-yillarda rus-yapon urushi haqida turk tilida uch tomlik kitobning Buxoroga olib kelinishi e`tiborga loyiqdir.

Hozirda Shayx Sabboq Buxoriy tomonidan yozilgan, 3-4 papkada saqlanadigan kitoblar qo`lyozma holatida bo`lib, ularni nashr etish imkoniyati bo`lmay, kelajak avlodlarga meros bo`lib qoldi. Abduqodir Karomatullo Buxoriy 95-97 yoshiga qadar o`rnidan turib yura olmasada, emaklab borib kerakli kitobni javonidan olar va undan foydalanib bo`lganidan so`ng esa, erinmay o`z o`rniga eltib qo`yardi. Uning ma`naviy jasorati tahsinga sazovor bo`lib, bugungi avlod uchun o`rnak olarlidir. 97 yoshdan ortiq umr ko`rgan Shayx Sabboq Buxoriy so`nggi nafasigacha Vatan mehri va yodi bilan yashadi. Zero, inson uchun o`z vatanida yashashdan ziyoda baxt bo`lmasa kerakligini vatanidan olisda umr guzaronlik qilgan insonlardek hech kim hech qachon his qilolmaydi.

⁴⁴ qarang. Buxoronoma, 1991; 21 aprel.

⁴⁵ Sayfiddin Jalil. Eslatilgan asar.-B.177.

III.2. Saudiya Arabistondagi o'zbek millatiga mansub olim, diniy ulamolar, shoir va ijodkorlarning ilmiy me'rosi.

Yuqoridagi boblarda ta'kidlanganidek, muhojirlik tarixiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyati bo'lib, o'zbek millati ham ushbu jarayondan chetda emas. O'zining otabobolari yurtiga mustahkam bog'langan o'zbeklar ajdodlari zaminini va asl vatanlarini imkon qadar tark etishmagan. Biroq, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar tufayli xorijda o'zbek diasporasi vujudga kelganligi, bugungi kunda 5 milliondan ortiq millatdoshlarimiz 30 dan ortiq (MDH va Boltiqbo'yi davlatlari bu hisobga kirmaydi) „uzoq xorijda“ yashayotganligi tarixiy haqiqatdir. Muhojirlik jarayoni mustabid sovet tuzumi yillarida ommaviy tus olib, ayni ushbu tarixiy bosqichda millionlab o'zbeklar vatangadolikka duchor etilganligi ham o'z isbotini topgan. XX asrning dastlabki o'n yilliklaridan buyon bir asrdan ortiq davr o'tdi. O'rta qolgan yuz yillik davrdan o'zbek muhojirlari orasidan dunyoviy va diniy ilmlarning o'nlab donishmandlari yetishib chiqdi.

1920-1930- yillarda xorijga hijrat qilgan, ya'ni „Buxoriylar“ yoxud „Turkistoniylar“ ning dastlabki avlodlariga mansub mashhur Sharq mamlakatlaridan ayrim islomiy olimlar haqida ushbu paragrafda muxtasar fikr yuritishni lozim deb topdik. Bugunki kunda ularning aksariyati hayotdan ko'z yumgan bo'lsada, tasavvuf yo'nalishda o'zlaridan boy ilmiy –madaniy, ma'naviy me'ros qoldirdilar. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, vatandosh ulamolarimizdan 650 nafarga yaqini turli Sharq mamlakatlarida mudarris, imom-xatib, qorilar kabi diniy vazifalarda xizmat ko'rsatib o'tishgan. Tarixchi olim Sayfiddin Jalilov Saudiya Arabistonining turli-tuman shaharlarida mashhur bo'lgan, el-yurt hurmatini qozongan o'zbek millatiga mansub islomiy ilm donishmandlaridan 86 nafarining ism-sharifini o'z kitobida keltirib o'tadi.⁴⁶ Ushbu fuzalolar asl nasl-nasablari O'zbekistonning Andijon, Namangan, Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro, Samarqand kabi boshqa shahar qishloqlaridan bo'lishgan. Saudiya Arabistonining podsholari,

⁴⁶ Sayfiddin Jalilov. Buxoriylar qissasi (Muhojirat tarixidan lavhalar). „Toshkent islom universiteti“ nashriyoti. T.-2006. –B. 151-153.

amir va shahzodalari xizmatida bo`lib, ularga ustozlik qilgan o`zbek ulamolarining ham mavjudligi bu boradagi tasavvurimizni yanada kengaytiradi. Shunday ulamolardan Abdulfattoh Qori Ho`qandiy To`ra Namangoniy, Abbosxon Qori Andijoniy, Abdullahadxon Kosoniy... xullas, ushbu ro`yxatni yana davom ettirish mumkin.

Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan muhojir o`zbeklardan yana biri Fazliddin Ilohiy bo`lib(asli Qo`qon shahridan), u Madina amiri bo`lgan Abdulmajid ibn Abdulazizning yaqin mulozimi va ish yurituvchilaridan biri edi. Fazliddin Qo`qondiy islom dini qoidalari va islom axloqini chuqur egallagan, sertakalluf, fuqaroparvar kishi bo`lgan.⁴⁷ U amir huzuriga ruxsatsiz kirishga izn beradigan xos choponga ega bo`lgan. Islom dini va diniy ilmlar bilimdoni, asl nasl-nasabi toshkentlik bo`lgan No`mon Toshkandiy Makka shahridagi UM-ul Qaro universitetida ilohiyot professori sifatida ko`p yillar faoliyat yuritgan.⁴⁸ Shunday ulamolardan biri Rahmatullo Toshkandiy o`zining „Ilm va iymon“ nomli kitobini yaratgan. Ushbu kitobida ilm aql chirog`i, diniy ilm esa ko`ngil chirog`i ekanligini tavsiflab bergan.

Musulmon Sharqida nomi mashhur bo`lgan islom dini ilmiy an`analarini horijda izchillik bilan davom ettirgan Sayid Nazirxon o`g`li Mahmudxon Tarroziy ilmiy faoliyati va ma`naviy merosi orqali bir qadar fikr yuritish bu boradagi tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi. Sayid Mahmudxon Tarroziy (1895-1991-yillar) yoshligida Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. U sovet jamiyatida xudosizlik uchun kurash kuchaygan, ta`qib va tazyiqlar avj olgan 1930-yilda ona shahri Tarozi (Avliyootadan) Afg`onistonga muhojirlikka chiqib ketgan. Sayid Mahmudxon Tarroziy Afg`oniston, Hindiston mamlakatlarida yashagan. U 40 yildan ortiq Saudiya Arabistonining Makka va Madina shaharlarida istiqomat qilgan. Olim o`z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Qur`oni Karim tafsiri, islom dini va ularning mazhablari, islom va ayollar masalasi, islom odobi va axloqi,

⁴⁷ Hurullaxon hoji Abdullaxon Qo`qandiy. Muborak haj safari. –T.:Kamalak.1991. –B.58.

⁴⁸ Hurullaxon hoji Abdullaxon Qo`qandiy.o`sha asar. –B.67.

Rossiyadagi musulmonlar ahvoli va ularning ozodligi masalalariga bag`ishlab asarlar yozdi. Diniy ilmlar donishmandi Oltinxon to`ra Muhammad Tarroziy(Sayid Mahmudxon Tarroziy) Saudiya Arabistonining Madina shahridagi Jome` masjidi bosh mudarrisi bo`lishi bilan birga mamlakat tashqi ishlar vazirligida ham ishlagan.⁴⁹

Sayid Muhammadxon Qur`onning birinchi o`zbek tafsirini(arab imlosida) yozgan. Kitob 1975- yilda Pokistonning Karachi shahrida chop etilgan. Arab, fors, hind, turk tillarini puxta bilgan Tarroziy Madinadagi katta masjidlaridan birida Qur`on tafsiridan uzoq muddat dars bergan. Saudiya Arabistoni qiroli huzurida bo`lib, u bilan shariat masalalarida muloqotlar uyushtirib turgan. „Oltinxon to`ra” nomi ham bu shaxsga Saudiya Arabistoni davlat rahbarlari tomonidan berilgandir.

Oltinxon to`ra arab tilida „Xazoili durud bar saidul vujud” („Payg`ambarimiz fazilatlari haqida”), „Fiqhi akbar” Makkai-Mukarrama, Madinai-Munavvara diniy oliygohlarida darslik sifatida o`qitiladi.

Shoir sifatida uning „Majmui qasoidi Mahmudiya” („Mahmudxon qasidolari” to`plami)<sup>50</sup> she`riy kitobi bor. Musaddas, g`azal, muxammas, ruboiy, to`rtliklardan iborat Tarroziy to`plamida O`zbekistonda cheksiz mehr-muhabbat va uning ozodlikka erishuvchi orzusi madh etiladi.⁵¹

Xullas xoriyda yashab o`tgan tasavvufshunos olimlarimiz va diniy ulamolarimizning ilmiy-madaniy merosini aniqlash va o`rganish istiqboldagi eng muhim vazifalardan biridir. Zeroki, islomiy ulamolarimizning horijda yaratgan

⁴⁹ Sayid Muhammadxon 1894-yil Avliyoota(hozirgi Tarozi) shahrida tug`ilgan bo`lib, Pokistonda uni To`ra Sohib deb atashgan, u 8 yoshida Makkai Mukarramada haj safarida bo`lgan, Saudiya Arabistonda yangitdan oila qurib, 6 o`g`il, 6 qiz, jami 12 farzand ko`rgan, 98 yoshida vafot etgan. Qarang:Rajabov Q.Oltinxon to`ra//O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.6. –T.:O`zME nashriyoti,2003. –B.530.

⁵⁰ Qosimov E. Oltinxon to`ra vasiyati//Toshkent haqiqati,1991-yil 15-hoyabr.

⁵¹ Oltinxon to`ra vasiyati//Toshkent haqiqati,1991-yil 15-hoyabr;Abdullayev I.Vatan ishqida yashagan olim//Yosh leninchi.1991-yil 27-noyabr; Qosimov E. Otajon, men qizingizman// Toshkent haqiqati.1991-yil 30-noyabr; Oltinxon to`ra she`riyati//Toshkent haqiqati,1991-yil 27-noyabr.

ilmiy-ma`naviy merosi ham o`zbek xalqi madaniyati va ma`naviyati xazinasining bir bo`lagi ekanligini unutmasligimiz zarur.

III.2. a) Sayyid Mubashshirxon Taroziy

b) Sayyid Qosim domla Andijoniy

v) Muhammad Yunus Yo'ldosh o'g'li Namangoniy

g) Kamol Abdulloh Toshqin-Saudiya Arabistonlik o'zbek adibi

a) Sayyid Mubashshirxon Taroziy

Turkistondan chiqqan vatandosh yirik ulamolardan yana biri Sayyid Mubashshirxon to'ra Taroziydir. U kishi ham Sayyid Mahmudxon Oltinixon to'raning hamyurti –Tarozi shahrida tavallud topgandir. Bu zot ,asosan Misrda istiqomat qilgan bo'lsalar ham Saudiya Arabistonni va bu yerdagi vatandoshlar bilan aloqani aslo uzmagalar . Biz to'plagan ma'lumotlar asosan Jidda shahrida istiqomat qiluvchi o'g'illari doktor Abdulloxon Mubashshir Taroziydan hamda Makkadagi shogirdlari – olim Muhammad Qosim Amondan yozib olingan.⁵² Madinada istiqomat qilgan tarixchi olim, yuqorida nomi keltirilgan marhum Mubashshirxon Sulaymon Kosoniy o'zining “O'rta Osiyo tarixi “ deb atalgan kitobida (uchinchi jild) Mubashshir Taroziyning Afg'onistondagi faoliyatini qisqacha yoritib o'tgan.

Sayyid Mubashshirxon Taroziy 1890-yili Avliyo ota (Tarozi) shahrida tasavvuf ilmining bilimdoni oilasida tug'ilgan.Otalari Sayyid Muhammadxon to'ra fiqh ilmida e'tirof etilgan olim hisoblangan. Shuningdek, Naqshbandiy tariqatida ham o'z davrining e'tiborli shayxlaridan bo'lgan. Mubashshirxon bolaligidanoq quvvai hofizasi kuchli, is'tedodli bo'lgan. Dastlabki darslarni otasidan, shuningdek, Tarozi shahri mullolaridan olgan. So'ngra oliy ta'limga intilib, avval Toshkentning mashhur Ko'kaldosh madrasasida o'qigan, so'ngra o'qishni Buxoroda davom ettirgan. U yerda ko'zga ko'ringan ulamolardan tahsil olib, xususan Payg'ambarimiz (s.a.v)ning hadislarini, Qur'on tavsiri, shuningdek arab

⁵² qarang. Jalilov S. Buxoriylar qissasi. –T. :2006.- B.150-174.

adabiyotini chuqur o'rganadi. Buxoroda Naqshbandiya ta'limoti bilan jiddiy shug'ullanadi. Bir vaqtning o'zida, Qur'oni karimni yod oladi. Yuzlab hadislarini tavsir va tadqiq qiladi, shuningdek, ilk o'rta asrlarda o'tgan mashhur arab shoirlari ijodi haqida ilmiy ishlar bilan ham shug'ullanadi.

Boshqa tolibi ilmlardan farqli o'laroq, Mubashshirxonda siyosiy dunyo qarash ham o'sib bordi. U o'lkada o'rnatilgan Rossiya mustamlakachiligi haqida ham mushohada yurgizar, yurt qashshoqligi, mazlum xalqimiz hayotining nochorligi haqida ham mulohaza yuritadi, unda chorizm siyosatiga qarshi fikrlar uyg'onadi. O'sha davrda chiqadigan "Isloh" va "Oyina" jurnallarida xalq hayotining nochorligi haqida va turkistonliklarni birlashishga chaqiruvchi dastlabki maqolalarni e'lon qiladi. 1917-yilgi davlat to'ntarishi munosabati bilan Buxoroda o'qiyotgan ilg'or fikrli talabalar jamiyatini tuzishga kirishadi. "Isloh" va "Oyina" jurnalida o'quvchilarni o'ylantiradigan fikr-mulohazalarni o'rta tashlaydi. Uning dastlabki maqolalariyoq xalqni sergaklikka chaqiradi.

Nihoyat, Mubashshirxon Buxoro talabalari jamiyatini tuzadi. Bu davrga kelib u islomiy ilmlarning bilimdoni bo'lib shakllangan va ilmiy doirada e'tirof etilayotgan yosh olim sifatida tanilayotgan edi.

Mubashshirxon sho'ro hokimiyati ichki siyosatining asl maqsadlari va mohiyatini avvalboshdanoq zukkolik bilan anglay boshladi. U 1920- yillardanoq ulamolarning maxfiy jamiyatlarida ishtirok etib, yig'ilishlarda sho'roni tanqid qiluvchi chiqishlar qiladi. Tabiiyki, maxsus ayg'oqchilar nazariga tushadi va ular kerakli joylarga tegishli axborotlar yetkazadi.

Shu tariqa 1926-yili yosh olim Mubashshirxon hibsga olinadi va barcha maqolalari, nutqlari taftish qilinib, "sho'roga qarshi" deb qamaladi. Qamoqda taxminan bir yil yotib, kafolat va "jimgina yurish" sharti bilan ozod qilinadi, ammo, baribir, ta'qib ostiga olinadi. U ona shahriga qaytib, birmuncha muddat ilmiy ish bilan shug'ullanadi. O'zbeklar istiqomat qiladigan Turkiston, Chimkent,

Sayram, Marki kabi shaharlarda va atrof qishloqlarda uning nufuzi yildan yilga ortib boradi.

Mubashshirxon hozirgi Qozog`istonning janubiy tomonlarida tashkil etilgan “Turkiston qurilishi” nomli maxfiy tashkilotning Avliyo ota bo`limiga boshliq etib tayinlanadi. Bundan xabar topgan komfirqa ayg`oqchilari ham tek turmadi: ular bu haqda hukumatga xabar beradilar. Tashkilot tintuv qilinib, uning barcha hujjatu qog`ozlari yo`q qilinadi. Biroq hukumat Mubashshirxonning xalq orasidagi obro`e`tiboridan hayiqib, uni qamay olmadi, ammo chetga chiqib ketishga majbur etdi.

Shu tarzda 1930-yili Mubashshirxon oilasini tashlab, yoshgina o`g`li Nasrulloxonni olib xorij safariga otlanadi. Ota-bola Farg`ona vodiysining sharqiy tumanlarida ko`p sarson-sargardonliklarni boshdan kechirib, nihoyat, Amudaryodan o`tib, Afg`onistonda qo`nim topadi. Mubashshirxon ushbu mamlakatda to`planib qolgan farg`onalik yurtdoshlari orqali olimligi va tashkilotchiligi haqidagi xabar afg`on hukumatiga tezda ma`lum bo`lib, o`sha yillari Afg`oniston rahbari Nodirshoh hukumatining maorif idoralariga ishga taklif qilinadi. Bir muddat ishlagach, hukumat yangilanib, ishdan bo`shatiladi. Bu orada sog`lig`i ham yomonlashib, 1936-yili davolanish uchun Hindistonga ketadi va Lohur shahrida o`rnashadi. Bu yerda ham hind musulmonlari orasida ham tez orada e`tibor qozonadi, hind ulamolari, jumladan mashhur adib Muhammad Iqbol bilan tanishadi, Bu shaharda tashkil qilingan „Himoyati islomiya” jamiyatining ishida faol qatnashib, uning jurnaliga bayonot beradi, maqolalar yozadi. Keyinchalik Hindistonda o`zbek muhojirlari ko`paygach, ularning mustaqil jamiyatini tuzadi.

Mubashshirxon Taroziy Ikkinchi jahon urushi boshlangan 1939-yili Hindistondan Afg`onistonga keladi va afg`on hukumati tomonidan maorif vazirligiga ishga taklif qilinadi.

Uning Afgʻonistondagi faoliyatini oʻsha yillari Qunduz shahrida istiqomat qilgan yana bitta vatandoshimiz Mubashshir Sulaymon Kosoniy oʻzining “Oʻrta Osiyo tarixi” asarida qalamga olib oʻtgan.

Stalingrad janglaridagi sovet qoʻshinlarining gʻalabasi vatandoshlarimizda umidsizlik paydo qilgan. Aygʻoqchilar igʻvosi bilan Afgʻoniston hukumati tomonidan 1943-yil aprel oyidan 70 dan ortiq vatandoshimiz, jumladan, Sayyid Mubashshirxon Taroziy ham qamoqqa olinadi. (Aftidan, 1926 va 31-yillari tuzilgan sovet – afgʻon doʻstlik aloqalari haqidagi bitim shartlariga binoan, ular sovet hukumatining talabi bilan qoʻlga olingan) Mubashshirxon Taroziy ikki yil turmada yotgach, nufuzi eʼtiborga olinib, 1945-yili ozod qilinadi va mamlakatdan chiqarib yuboriladi: Mubashshirxon oilasi bilan Misrga koʻchib ketadi.

Mubashshir Taroziy 1950-1960- yillari Saudiya Arabistoniga bir necha marta tashrif buyurib, bu yerdagi vatandoshlar bilan yaqin aloqa oʻrnatadi. Turkistonni SSSR panjasidan qutqazib olish yoʻllari haqida hamyurti Oltinxon toʻra kabi siyosatda hushyor olimlar bilan suhbat oʻtkazadi. Oʻzi esa, faqat ilmiy ish bilan shugʻullanadi: Misr kutubxonalari Bosh idorasining “Dor al-kutub al-misriya” tashkilotida turkiy kitoblar boʻlimiga uzoq yillar mudirlik qiladi. Shu bilan birga, umrining oxirigacha ona yurti Turkistonning ozodligi yoʻlida qaygʻuradi. Misrda arabcha “Savt at-Turkiston” (“Turkiston ovozi”) va oʻzbekcha “Turkiston” degan jurnallar taʼsis qilib, turkistonlik qalamkashlarni jurnal ishiga jalb qiladi. Butun faoliyati davomida xorijda yashayotgan oʻzbek millatdoshlari orasida ona tili, urf-odati-yu milliy anʼanalarni saqlab qolishni targʻib qiladi. Arab muhitida yashaganiga qaramay, oila aʼzolariga oʻzbek tilida gaplashishni oʻrgatadi.

Mubashshirxon Taroziy arab, fors va oʻzbek tillarida bab-barobar ijod qilgan. Afgʻoniston, Misr, Germaniyada chiqadigan jurnallarda koʻplab maqolalari bosilgani maʼlum. Afsuski, ilmiy asarlarning toʻliq roʻyxatiga hozircha ega emasmiz. Makkadagi shogirdi Muhammad Aminning ustoz Mubashshirxon Taroziy haqida bizga yozib bergan maʼlumotida koʻrsatilishicha, olim quyidagi yoʻnalishlarda asarlar yozgan:

- Qur`oni karim haqida(uning ma`nolari, tajvidiy qiroati va h.k.);
- islom dini va uning yo`nalishlari haqida (mazhablar va ularning mohiyati);
- islom va ayollar masalasi(ikkita kitob);
- islom va sharob haqida;
- odob va axloq, tarbiyaga doir bir necha kitoblar;
- ona tili va uning millat taqdiridagi roli haqida;
- Rossiyadagi musulmonlar ahvoli va ularning ozodligiga bag`ishlangan kitoblar;
- islom dini va siyosiy partiyalar haqidagi maqolalar turkumi.

Bulardan tashqari, „Taroziy” taxallusi bilan g`azallar devoni, shuningdek, 4035 baytdan iborat masnaviylar saqlangan. Fikrimizcha, Taroziyning asarlari, endilikda mustaqillikka, hurfikrlikka erishgan xalqimizning ma`naviy mulkiga aylanmog`i lozim. Binobarin, ularni jamlash va xalqimizga yetkazish zamonamiz talabidan kelib chiqadigan vazifalardandir.

Sayyid Mubashshirxon Taroziy 1977-yili 87 yoshida Qohirada vafot etdilar. U kishining shogirdi ta`biri bilan aytganda, Taroziy hazratlari „Turkistonning munavvar olimi, ham, olijanob inson edi”. U saxiy inson edi. Yozgan maqolalari uchun hech qachon qalam haqi olmagan. Agarda, chet ellardan pochta orqali pul kelsa, olardi-da, g`ariblarga ulashib berardi. 1980-yili olim tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Qohirada xalqaro ilmiy anjuman o`tkazilib, unga islom mamlakatlaridan ko`plab olimlar tashrif buyurdilar. Anjumandagi ma`ruzalar va axborotlar arab tilida maxsus to`plam holida nashr qilingan.

Bu vatandosh olimning Saudiya Arabistoni va Misrdagi obro`e`tibori kindik qoni to`kilgan ona shahri- Jambulda uning nomini abadiylashtirish masalasini ko`tarishni taqozo etadi.

b) Sayyid Qosim domla Andijoniy

Vatandosh islomiy ulamolardan yana biri domla Sayyid Qosim Andijoniydir. Bu kishi ham Vatan dog`ida kuyib o`tgan olim, ziyolilarimizdandir. U 1885-yili Andijon shahrining sharqiy biqinidagi Bo`taqora qishlog`ida tavallud topgan. Otasi obro`-e`tiborli kishilardan bo`lgan. Sayyid Qosim dastlab qishloq xususiy maktabida o`qib, savodini chiqargan. So`ngra uni Andijondagi mashhur Jome` madrasasiga o`qishga beradilar. Sayyid QosimMulla Xoliqberdi Oxun domla, Yunus oxun domla kabi ko`zga ko`ringan mudarrislar qo`lida o`qib, yetuk mulla bo`ladi. So`ngra, otasi uni Xo`jandga, keyin Toshkent madrasalariga o`qishga yuboradi, keyin Buxoroga keladi. Nihoyat, Buxoroda oliy madrasani tugatib, 1911-yili Hindistonga ketadi va Banoras shahriga o`rnashib, bu yerdagi ilm dargohida tahsil oladi. Sayyid Qosim o`sha yurtida „Andijoniy” taxallusini oladi.

Bu mamlakatda u 5yil istiqomat qiladi, 1916-yili yana, Andijonga qaytib, ona qishlog`i Bo`taqoradagi kichik bir madrasada faoliyat boshlaydi. 1917-yilgi siyosiy voqealar boshlanib, hayot izdan chiqadi. Harbiy-siyosiy ur-yiqitlar oqibatida qishloqlarda iqtisodiy qiyinchilik boshlanadi. 1918-1920-yillarda Qizil armiya „bosmachilik” deb atalgan milliy-ozodlik harakatiga qarshi arman millatchilarining „Dashnoq” guruhi ham birlashib, ko`p qon to`kiladi. Oqibatda qishloqlar vayron bo`ladi, dehqonchilik izdan chiqdi, ocharchilik boshlandi. Bularni o`z ko`zi bilan ko`rib, kuzatib turgan Mulla Sayyid Qosim bir qishloq ziyolisi sifatida Turkiston xalqlari taqdiri haqida qayg`uradi. Afsuski, ular vatanda kutilgandek, aks-sadoni bermadi. Bunday ziyolilar yakkalanib qoldi, boshlari birikmadi, birikishga imkon ham bo`lmadi. 1921(yoki 1922) yili Sayyid Qosim yana Hindistonga ketadi va u yerdagi ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Bu vaqtda Hindistonning Bombay shahrida muhojirlikda yashayotgan mashhur tatar olimi Muso Jorulloh bilan tanishib, u bilan ilmiy hamkorlik qiladi va siyosat bobida munozaralar uyushtiradi. Muso Jorulloh islomiy olim bo`lish bilan birga, yetuk siyosiy arbob ham edi. U 1917-yilgi Oktabr to`ntarishi va uning oqibatlari haqida o`z nuqtai nazariga ega inson edi.

Sayyid Qosim o`sha yillari siyosat olamida mashhur bo`lgan, Germaniyaga hijrat qilgan Mustafó Cho`qay bilan ham aloqa o`rnatadi. Vatanni ozod qilishda hamkorlikni taklif qiladi. Shuningdek, Hindistonda ham ko`pgina yurtparvar millatdosh ulamolar bilan tanishadi. Jumladan, katta olim Mavlono Abdul Kalom Ozod bilan yaqindan hamkorlik qilib, turkistonlik musulmonlarni sho`ro zulmidan, dahriylar hukmronligidan ozod qilish yo`lida hamfikir bo`lib, birga faoliyat ko`satadilar, chiqishlar qiladilar. Hindiston shaharlariga kelib o`rnashib qolgan turkistonliklarni bir maqsad yo`lida harakat qilishga chaqiradilar va bu ishda vatandoshlar orasida jasur insonlar bo`lib taniladilar.

40- yillari Hindistonda avj olgan milliy ozodlik harakatlari sabab muhojirlar osoyishtaligi buzilib, Sayyid Qosim Andijoniy bu yerdan Saudiya Arabistoniga ko`chib ketadi. Makkalik Muhammad Qosim Aminning guvohlik berishicha, Sayyid Qosim domla Madina shahriga kelib o`rnashgan va Makkadagi eski qadr doni Oltinxon to`ra bilan bordi-keldi aloqalarini o`rnatgan.⁵³ Aytganimizdek, Oltinxon to`ra hazratlari hijratga oilasiz chiqqan va yolg`iz yashayotgan edi. Sayyid Qosim domlaning birinchi ro`zg`ori Bo`taqorada qolgani sabab Afg`onistonda bir hamshahrining Xosiyatxon degan qiziga uylangan edi. Undan Fotimaxon va Muhammadxon degan farzandlar tug`iladi. Saudiya Arabistoniga ko`chib kelgach, bo`yiga yetgan qizi fotimaxonni Sayyid Mahmud-Oltinxon to`raga nikohlab beradi va bu ikki ulug` vatandosh qaynota-kuyov bo`ladilar. Madinadagi Payg`ambarimiz haramlarida dars berishga taklif qilinadi. Bir vaqtning o`zida u kishi shaxsiy maktab va madrasalarda ham dars berib, bu muqaddas shaharda mashhur bo`lib ketadi.

Muhammad Qosim Aminning aytishicha, Sayyid Qosim domla keng ma`lumotli, ancha nufuzli olim bo`lgan. Diniy bilimlardan tashqari, tarix, jo`g`rofiya, adabiyotni, shuningdek, siyosatni ham puxta bilgan va ko`p sohalarda vatandoshlar orasida hatto, kuyovi Oltinxon to`radan ham peshqadamroq sanalgan.

⁵³ qarang. Salmonov A.M. O`zbekitonda xudosizlik uchun kurash\\ FarDU, Xabarlar; 2001. – B.170.

Domla Madinada qariyb 25 yil dars bergan, bir vaqtning o'zida, ilmiy asarlar ham yozgan. Misr, Hindiston, boshqa Arab mamlakatlari va Turkiya, Pokiston olimlari bilan ham aloqalar o'rnatgan, ularning kitoblari bilan muttasil tanishib borgan.

Sayyid Qosim Andijoniy 1972-yili Madinai munavvarada 87 yoshida vafot etdi va "Jannat ul-Ma'allo" qabristoniga dafn qilinadi. 1997-yilgi safarimiz chog'ida biz bu marhum vatandoshimiz haqida xotira to'plash maqsadida ko'p kishilarni suhbatga tortdik. Barcha suhbatdoshlarimiz bu odamning ulug' olim bo'lganini aytadilar. Janozasi kuni deyarli barcha shaharlardagi vatandoshlar Madinaga kelishgan va uch kungacha motam tutilgan. Marhumning shogirdlari ustozini haqida ko'pincha quyidagi iboralarni ishlatadi: Domla Sayyid Qosim Andijoniy doimo Turkistonimiz ozodligini o'ylagan, Bu yo'lda qalamini quroqilib, tinmay xizmat qilgan". Ming afsuski, u kishi ham ezgu maqsadi- Vatan ozodligini ko'rolmay, dunyodan ko'z yumdi.

Olimdan bir qator ilmiy asarlar qolgan. Afsuski, ularning barchasi nashr etilmagan va ko'pchiligi qo'lyozma holda qolib ketgan, ayrimlari hamon shogirdlari qo'lida saqlanadi.⁵⁴ Ma'lum bo'lishicha, keyingi yillar Sayyid Qosim domlaning asarlari Islom olami uyushmasi tomonidan to'plashga kirishilgan. Olimning faqat "Lozim vazifalar" nomli chog'roq asari Madinada nashr qilingani ma'lum. Asar yillar o'tib Turkiston ozod bo'lgach, o'lkada amalga oshirilajak xayrli ishlarga bag'ishlangan. Madinadagi do'stlarimiz ushbu asardan bizga bir nusxa ko'chirib berdilar.

Bu olim haqida to'plagan ma'lumotlarimizni yakunlash oldidan shuni bildirib o'tmoqchimizki, safardan qaytgach, Andijonning Bo'taqora qishlog'iga borib, vatandoshimiz zurriyotlarini izladik. Ma'lum bo'ldiki, olimning yurtida Ruqiyaxon ismli bir qizi go'dakligida otadan yetim qolgan. Keyinchalik Ruqiyaxon Qo'qonga uzatilgan. 1999-yili Qo'qonga borib, opani surishtirdik va hovlisini topdik.

⁵⁴ Sayfiddin Jalil. Eslatilgan asar.-B.171.

Abdumajid ismli o`g`li bilan tanishdik. Afsuslar bo`lsinki, Ruqiyaxon onaxon otalari dog`ida 1997-yili vafot qilibdilar, ko`risholmadik. Biz o`g`illari- Sayyid Qosim nabirasi Abdumajid bilan uzoq suhbatlashdik, onasining hayoti haqida ma`lumotlar oldik va Madinada o`tgan bobosi haqida u kishini o`zimiz to`plagan ma`lumotlardan xabardor qildik.

Sayyid Qosim Andijoniyilmiy me`rosini topib to`plash va Ozbekistonga keltirish zamonamiz da`vatiga mos vazifalardandir, deb hisoblaymiz. Zero, bu vatandoshimiz ham ko`plari qatori, ipi uzilgan marvarid shodasidek atrofga sochilib ketgan gavhar nuqralaridandir. Uning merosi ham xalqimiz ma`naviyatini boyitishga xizmat qiladi.

v) Muhammad Yunus Yo`ldosh o`g`li Namangoni

Vatandosh olimlardan yana biri Muhammad Yunus Yo`ldosh o`g`li Namangoni. U kishining nomi uzoq yillar noma`lum bo`lib keldi, hayoti va ilmiy faoliyati ko`proq Misrda kechgan sabab, olim haqida quyidagi ma`lumotlarni to`pladik.

Bu zot 1890-yili Namangan shahrida ahli ilm oilasida tavallud topgan. Otalari mulla Yo`ldosh diomla XIX asr oxiri XX asr boshlarida Namangan madrasalaridan birida mudarrislik qilgan. Muhammad Yunus dastlab otasi qo`lida o`qigan va boshlang`ich ta`lim olgan. Yo`ldosh diomla vafotidah so`ng, taxminan 1905-yillardan Samarqandga otasi vasiyati bilan bir tanishinikiga o`qigani ketgan. Notanish shaharda bir muncha muddat darbadar kezib, nihoyat, otasining do`stini topgan va bu mulloga shogird bo`lgan: ham o`qigan, ham uning xizmatini qilgan. Bir necha yil o`tib, odobli va o`qimishli shogirdi sifatida ustozining mehrini qozongan. O`qish muddati tugagach, ustoz maslahatiga binoan Namanganga qaytmasdan Samarqand maktablarida dars berib yurgan.

Bu orada 1917-yilgi oktabr to`ntarishi yuz berib, xalq hayotida besaranjomlik boshlandi. Sho`ro, ayniqsa, zabardast mullolarga qattiq jabr qildi – ularga qiyin bo`ldi. Ustoz va shogird birgalashib, muborak haj safariga jo`nadilar. Odatdagidek, Makkai mukarramada va Madinai munavvarada bo`ldilar. Muborak haj amallarini bajargach, bu musofir yurtida qolishni ma`qul ko`rmadilar va Misr orqali Vatanga qaytdilar.

Biroq kutilmaganda noxush voqea sodir bo`ldi: Suvaysh kanali bo`yidagi Port Said shahriga kelganlarida ustozi-tutingan otasi qo`qqisidan betob bo`lib qoladi va ko`p o`tmay notanish shaharda vafot etadi. Shahar masjidiga to`planganlar musofirga janoza o`qib, mahalliy mozorga dafn qiladilar.

Ustoz-otasidan ayrilib qolgan Muhammad Yunus nima qilarini bilmay, gangib qoladi. Port Said shahrida bir muddat darbadarlikda yuradi. Karvon saroylarda, mehmonxonalarda yo`lovchilar xizmatini qilib, bir amallab tirikchilik o`tkazadi.

Ammo, shogirdi iste`dodiga to`g`ri baho bergan ustozini yana o`qish – ilm olishni vasiyat qilgan edi.

Muhammad Yunus biroz zaxira pul to`plab, Port Saiddan Qohiraga jo`nadi va so`rab surishtirib mashhur al-Azhar oliygohini izlab topdi. Oliygo`h rahbarlariga uchradi, o`zini Movarounnahrda kelganini, bu yerda yetim bo`lib qolganini va o`qimoqchi ekanini izhor qiladi. Nihoyat, uni oliygohga o`qishga qabul qiladilar.

O`shanda 1929- yil edi. Muhammad Yunusni universitet hujralaridan biriga bepul joyladilar. Universitetda olti yil ta`lim olib, 1935- yili – 45 yoshida bu mo`tabar oliygohning diplomiga ega bo`ldi. Biroq Vatanga qaytolmadi. Sababi – mamlakatdagi noxush ahvoldan axborot vositalari orqali xabar topib turgan edi. Ona yurtidan, tug`ishganlaridan ajralib, musofirlikda qolib ketdi. Uzoq muddat Qohira maktablarida o`qituvchilik qildi, bo`sh vaqtlarida mahalliy gazetalarga maqolalar yozib turdi. Vatandoshlar o`qisa, o`zini tanitish maqsadida maqolaga turkistonlik ekaniga ishora qilib, imzo chekardi.

Nihoyat, 1950-yil boshida uni Qohiradagi „Dor al-kutub al-misriya“ nomli ilmiy mahkamaga ishga qabul qildilar. O`shanda 60 yil umr ko`rgan kishining ilmiy faoliyati boshlandi. Bu orada, kechroq bo`lsa ham bir arab qiziga uylanib, ro`zg`orli bo`ldi va farzandlar orttirdi.

1950-yillar boshida Sayyid Mubashshirxon Taroziy ham Afg`onistondan Qohiraga kelgan edi, ular bir-birlari bilan tanishdilar. U kishi ham „Dor al-kutub“ga ishga kirgach, ikki vatandosh tez orada do`stlashib ketishdi. Muhammad Yunus Qohiraga ko`plab shogirdlar orttirdi. Shu tarzda yillar ketidan yillar o`tdi.

1964- yili Muhammad Yunus oilasi bilan Saudiya Arabistonga ko`chib kelib, Makkai mukarramga o`rnashdi. Tezda vatandoshlari bilan tanishdi. Yirik olimlardan Oltinxon to`ra, hamshahri Afandixon to`ra bilan aloqalar o`rnatdi, ilmiy faoliyatida ular bilan hamkorlik qildi. Afsuski, bu muqaddas shaharda

uzoq yashash unga nasib qilmadi; 1966- yili 76 yoshda dunyodan o'tdi va Makkadagi "Jannat al-Boqiya" qabristonida dafn etildi.⁵⁵

Muhammad Yunus Yo'ldosh o'g'li Namangonning ilmiy va ijodiy faoliyatini asosan Misrda, o'zroq Saudiya Arabistonida kechdi. Qohira olimlari orasida u kishini bilmaydigan odam kamdan-kam uchraydi. Bu zot, asosan, ikki sabab tufayli shuhrat qozongan.

Birinchidan, qo'li ochiqligi va odamlarga mehru shafqat ko'rsatganligi bilan hurmat orttirgan. Misrda ish yoki o'qishga kelib qolgan turkistonliklar hamyurtlariga –xox moddiy, xox ma'naviy bo'lsin yordamini ayamagan. Ular bepul uy-joy bilan ta'minlashgan, o'qishga, o'quv yurtlariga joylashib olishiga yordamlashar, ulardan doimo xabar olib turardi. Ayrimlarini esa o'zi o'qitgan, Misrga birinchi kelganlarni Qohiraning ziyoratgohlariga o'zi olib borgan, tanishtirgan va ularga qo'lidan kelgancha yordam ko'rsatgan. Turg'unlashib qolganlarning musofirligini bilintirmay ishga joylashtirishga yordamlashgan. Bu xayrli ishlarining barchasi olimning o'z yurtiga, o'z xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatidan edi.

Ikkinchi sabab – "Dor al-kutub"da ishlar ekan, Vatan ozodligi va uning shuhratini oshirish mavzusida ko'plab maqolalar yozgan, radio to'lqinlarida Vatan madhini ko'plab, kuylab chiqishlar qilgan. "Savt at –Turkiston", "Ozod Turkiston" kabi Misrda chiqadigan jurnallarda, Turkiyaning, xususan, Istanbul matbuot organlarida, shuningdek, Karochida chiqadigan "Tarjimoni afkor" jurnalida Shayx Muhammad Yunusning turli mavzudagi ko'plab maqolalari bosilgan. Bu olimning yirik asarlari haqida ma'lumotga ega emasmiz.

Nomi xalqimizga hamon yaxshi tanish bo'lmagan, umrbod g'ariblikda o'tgan ushbu ma'rifatparvar vatandoshimiz xotirasini tiklash va ijodiy me'rosini xalqimizga tanishtirish ishi ham kelgusining vazifalaridan deb bilamiz. Zero,

⁵⁵ qarang. Buxoronoma, 1991; 21 aprel.

Shayx Muhammad Yunus Namangoniyni Arabistonda ham ko'p eslaydilar,
Qohirada esa nomi anchagina mashhurdir.

g) Kamol Abdulloh Toshqin – Saudiya Atabistonilik o`zbek adibi.

Biz hikoya qiladigan inson Kamol Abdullo Andijoniy – Toshqin boshqa vatandoshlarimizdan o`zining dilnavozligi va shoir tabiatligi bilan farq qiladi. Kamol Andijoniy qalbidagi yuksak his-tuyg`ularni qog`ozga tushiradi. U muhojirlikning mislsiz mashaqqatlarini , vatanjudolik hasrat va alamlarini satrlarga jo aylab davralarda, do`stlar uchrashuvlarida millatdoshlari qalbiga madad va taskin bergan.

Kamol Abdulloh Toshqin⁵⁶ 1929-yilda Andijon shahrining Chuqur masjid mahallasida tavallud topgan. Kamol Abdulloh ism-sharifidan so`ng Adijoniy nomini qo`shib aytdilar. Chunki xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz o`z ism-sharifidan so`ng „Buxoriy” so`zini qo`shadilar. (Bu buyuk yurtdoshimiz Imom Ismoil Buxoriy vatanidan ekanligiga ishoradir) yoki o`zlari tavallud topgan shahar nomini qo`shib aytish ham taomilga aylangan.

Demak, Kamol Abdulloh o`zlari tavallud topgan shahar- Andijonni ism-shariflaridan keyin aytishlari tabiiy holdir.

Kamol Abdulloh va uning oilasi o`zbek muhojirligining eng katta to`lqini davrida: 20-30-yillar davrida vatandan muhojir bo`lganlar. Kamol Abdullohning otasi Abdulloh Qurbon o`g`li kosib bo`lib, o`ziga to`q oilalardan bo`lgan. 1993-yillarda zamona taqazosi bilan ularning oilasi Qoshg`arga (Shin-jon uyg`ur avtonom rayoni, XXR) ketishga majbur bo`ladi. Kamol Andijoniy ona yurtidan chiqib ketganlarida bor-yo`g`i 4 yashar bola bo`lganlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda hali yoshgina norasida go`dakda hech qanday ayb yo`qligi o`z-o`zidan ayon.

Sharqiy Turkistonda nafaqat Kamollar oilasi emas, balki yuzlab o`zbek oilalari istiqomat qilgan. Tarixiy ma`lumotlar shuni ko`rsatadiki, o`zbek vatandoshimiz dastlab Afg`oniston, Sharqiy Turkiston, Turkiya kabi mamlakatlardan boshpana

⁵⁶ Ba`zi manbalarda Komil Abdulloh, ba`zida esa Kamol Abdullo Toshqin, deb qayd qilinadi.”Muloqot”, 1991, 12-son.

topganlar. Ozbek vatandoshlar G`ulcha, Qoshg`ar, Yorkent singari shaharlarda joylashib, o`z milliy urf-odat an`ana va ona tillarini saqlash maqsadida o`zbek milliy maktablari bunyod etadilar. Farzandlarini ilmi bo`lishi uchun mavjud bo`lgan shart –sharoitlarni ko`tarish yo`lida tinmay mehnat qilganlar . Kamol Abdulloh o`rta maktabni Qoshg`arda bitirib, 1945- yilda Urumchidagi dorilfununga o`qishga kiradi. Urumchi dorilfuninida ikki yil tahsil oladi. 1947- yilda Qoshg`arga kelsa, amakilari Makkaga haj safariga tayyorgarlik ko`rishayotgan ekan. Uni ham o`zlari bilan olib ketishadi. Akalari Abdulsamad, Abdulxallil Sharqiy Turkistonda yashab qolishadi. Abdulsamad 25 yildan so`ng, 1955-yilda, Abduxalil 56 yildan so`ng 1989 –yilda G`ulchadan Andijonga ko`chib kelishgan. Kamol Abdulloh bir yildan ko`proq Pokistonda yashaydi, vaqtni bekor o`tkazmaslik uchun dandonsozga shogird tushib tish yasashni o`rganadi.

Komil Andijoniy ehtimol Pokistonda amakisi Ismoil Qurbonov bilan birgalikda tijorat ishlari uchun borgandir. 1949-yil u amakisining oilasi bilan Arabistonga ko`chadi. Saudiya Arabistonida musulmonchilik qoidalarini o`rniga qo`yish, kelajakda muqim yashash istagi bo`lgan. Chunki, 40-yillar oxiri 50-yillarda o`zbek muhojirlari Saudiya Arabistoni va Turkiyaga ko`plab ko`chib kela boshlaydi. Saudiya Arabistonida o`zlarini tiklab olishi uchun „Buxoriy“, „Turkistoniylar“, Imom Ismoil Buxoriy hurmati uchun butun soliqlardan darxon yoki ozod etilganlar.

Davlat vaqt vaqti bilan kambag`al, qashshoq beva-bechoralarga tekin uy-joy beradi. Saudiya Arabistonida uy qurmoqchi bo`lganlarga uzoq muddatli, imtiyozli (20-30 foizdan voz kechgan holda) qarzlar beriladi, dehqonlarning mahsulotlarini uch-to`rt baravar ortiq bahosi bilan sotib olib, ular rag`batlantiriladi. Har bitta parvarish qilingan hurmo daraxtiga 50 riyol, ko`paytirilgan chorva moli boshiga ham mukofotlar joriy qilinganligi, bu har bir musulmonning o`z oilasini oyoqqa turg`izib, yashab ketishga keng imkoniyatlar beradi. Vatandoshimiz Jo`ra Qori Bo`tak o`zining ma`lumoticha biz yuqorida qayd qilgan yillarda Turkiya hukumati turkistonlik muhojirlardan 5 yil davomida umuman soliq olmagan ekan.

Saudiya Arabistonida mavjud shart-sharoitlardan bahramand bo`lgan Kamol Andijoniy u yerda muqim yashab qoldi. O`sha yerda Kamol amakisi Ismoil Qurbon Andijoniyning qiziga uylanadi. Kamol Andijoniy mamlakat poytaxti Ar-Riyod shahrida 1949-1984- yillar davomida istiqomat qilgan. Pokistonda o`rgangan kasbi: yasama tish qo`yish hunari bilan umurguzaronlik qilgan, 1984-yildan boshlab Kamol Abdulloh Toyif shahriga ko`chib, on yildan buyon shu yerda yashab kelmoqda. Kamol Abdulloh bilan Makkada tanishgan shoir Emin Usmon ma`lumoticha uning 4 o`g`il, 4 qizi bor, „Muloqot“ jurnali muxbiri I.Usmonov ma`lumoticha esa, ikki qizi va ikki o`g`li bor.

Kamol Andijoniyning Toyif shahrida yasama tish tayyorlaydigan kichkina ustaxonasi bor.⁵⁷ U yerda 2-3 vatandoshlarimiz birgalikda mehnat qilishadi. Ma`lumki, amerikalik yirik sarmoyador vatandoshimiz Abdurauf Maqsudiyning tashabbusi bilan 1991- yil „El“ xalqaro uyushmasi tuzilib, u jahon o`zbeklarining (Turkistonliklar) Toshkentda birinchi xalqaro uchrashuvni o`tkazdi. Ushbu uchrashuvda 13 mamlakatdan 100 dan ortiq millatdoshlar ishtirok etdi. Toshkent uchrashuvida Kamol Abdulloh ham taklif etilgan edi. U xalqaro Toshkent uchrashuvi minbaridan turib xorijda yashuvchi vatandoshlarining O`zbekiston Prezidenti va Jumhuriyat hukumatiga murojaatini o`qib berdi. Kamol Abdulloh Hazrat Alisher Navoiyning 550 yillik yubiley tantanalarida ishtirok qildi. Andijondagi qarindosh –urug`lar bilan uchrashish baxtiga muyassar bo`ldi.

Kamol Abdulloh –Toshqin taxallusi ostida ko`p yillardan buyon badiiy ijodiyot bilan shug`ullanib keladi. Uning o`zi ta`kidlaganidek ; ”40 yildirki she`riyat bilan oshnoman ... Men uchun ayriliqda yaratilgan satrlar ko`ngil mulkidir.”

Adib Emin Usmon ma`lumoticha Toshqinning birinchi, “Zafar taronasi “ deb nomlangan she`ri “G`uncha”da nashr etilgan , “Oltoy“ ro`znomasida dunyo

⁵⁷ “Muloqot”, 1991, 12-son, 68 sahifa: “Sharq Yulduzi” 1992, 4-son 149-sahifa.

yuzini ko'rgan. Keyinchalik "Xontangri" oynomasida ham bir turkum she'rlari e'lon qilingan.

Kamol Abdulloh Toshqin muntazam ijod bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega emas edi. Chunki xorijda tirikchilik vositasi bo'lgan biror –bir kasb bilan shug'ullanish, oilani tebratish dastlabki maqsad bo'lgan. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyatda yozilgan she'riy asarlarini kitob holida nashr qilish ham mablag'ni talab qilardi. Shunga qaramay Toshqin o'z she'rlarini Amerika, Olmoniya, Saudiya Arabiston, Suriya, Afg'oniston, Shin –Jon -Uyg'ur Muxtor rayoni (XXR), Turkiya, Suriya kabi mamlakatlardagi vatandoshlar orasida tarqatib targ'ib qilgan.

"Amerika ovozi", "Ozodlik" radiosini o'zbekcha eshittirishlarida Toshqin she'rlari o'qib turilgan. Xorijdagi o'zbek nashrlaridan Olmoniyada chop etilgan "Istiqlol bayrog'i" jurnalida ham bir necha she'rlari e'lon qilingan. Turkiyada nashr qilingan "Bugungi Turkiston", "Turkiston" singari nashrlar orqali ham Toshqin she'rlari bilan tanishish mumkin.

Toshqin vatanidan yiroqda yashashga qaramay o'zbek adiblari A.Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlar bilan ijod qilgan. O'zbek klassik namoyondalari A.Navoiy, Z.M.Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim she'riyatidan ilhomlangan.

Kamol Abdulloh Toshqin ona yurt O'zbekistondan ayrilganlar ota-bobolari, qarindosh-urug'lari, o'z vatanlarini doimo qumsab yashaganlar, yurti tarovati haqida o'ylaganligini she'riy satrlarida ifoda etadi.

"Chekib dardi alamni firoqin sevgili qavmu-qarindoshim",

Hamesha ma'yusu mamnun, bizdek bo'lmasin, yo rab",-

deb yozadi shoir "Vatan ozodligi xalqimga erkinlik tamannosi" nomli she'rida, Toshqin ushbu misralari orqali muhojir o'zbeklar moddiy qiyinchilik tufayli emas, balki vatansizlikdan ma'yus va g'amgin, o'zgalar yurtida ularning yelkasi qisilgan

demoqchi bo`ladi. Inson o`z yurtida erkin va ozod yashasa baxtli bo`la oladi. Vatan va uning istiqboliga xizmat qilishdan ham mo`tabar, qutlug` ish bormikin?, - deb savol qo`ydi shoir. Toshqin vatangadolikni hech bir banda boshiga solmaslikni Oллоhdan iltijo qilib so`raydi:

Tazarrular bilan sendin tilar bu kamtarin Toshqin,

Jahonda hech kim mazlum, bizdek bo`lmasin yorab,

deb yozadi shoir mazkur she`rning so`nggi misralarida.

Kamol Abdulloh Ozarbayjon adibi Fuzuliyning “O`landan so`r” radifli g`azaliga muxammas bag`ishlar ekan, o`z ona yurtidan ayrilish dunyoda eng og`ir dard, faqat baxtsiz kishilargina duchor bo`ladigan, holatini yana bir bor ta`diklaydi.

Yomonroq dard bo`lmas, ul kishiga yurt firog`idin,

Zavolli baxtsizlar ayrilur yurtin quchog`idin.

Shoir Toshqin Vatanning ravnaqi, gullab yashnashi, undagi har bir fuqaroning „millat g`amida bo`lmoqligi”, millat tuyg`usining har bir dilga erlashishda”, „vatanni imon bilan seva bilish”, „himmat bilan yurtga xizmat qilish”, „elning dardiga da`vo bo`la bilish”, deb biladi.

Ona derlar vatanni, ul ona haqiga hurmat qil,

Rizosin olgali konu-dil ila sa`yu g`ayrat qil,

Yomon ko`zlardan asra posboni bo`l himoya qil,

Agar inson esang himmat bilan yurtingga xizmat qil,

Muhabbat pasha qil, kulsin Vatanning bog`u-

Vatan taqdiri sening qo`lingda, uning oldida barchamiz qarzдор.

Vatan uchun zarur bo`lganda jonni tika bilish hamda dushmanlardan himoya qilish, beminnat xizmat qilish uchun burchlimiz.

Shoir Vatan, ona-yurt haqida gapirganda shak-shubhasiz

O'zbekistonni(Turkistonni) nazarda tutadi. Toshqin „Muloqot” oynomasi muxbiri bilan muloqotda : „Bizni ham shu yerning (O'zbekiston) farzandi sifatida tan olishlaringizni astoydil xohlaymiz. Chunki biz hech qachon ota makondan tonganimiz va voz kechganimiz yo`q. Shu kezga qadar o`zimizni yurtning o`g`il-qizlarideb hisoblab keldik. Bunday baxtdan bizni hech kim va hech qachon mahrum etolmasa kerak”, - degan edi. Haqiqatdan ham Kamol Toshqin singari yuz minglab muhojir o`zbeklarning biz yashab turgan O'zbekiston zaminida o`rni bor.

Garchi haqqi bo`lmasa biz ularni nechun „vatandoshlar” deb ataymiz.

Toshqin go`daklik davri kechgan, ota-bobolari yashab o`tgan ona-yurtining farzandlarini ilm ma`rifatli, jahon miqyosida nufuzga ega bo`lgan mutaxassislar sifatida ko`rishni istaydi. O'zbekiston sanoati va qishloq xo`jaligi gullab yashnagan o`lkaga aylanib, ilg`or mamlakatlar qatoridan o`rin olishini orzu qiladi.

Biz yuqorida qayd qilgan muxammasida shoir:

Tilarmanki Vatan avlodi fan tog`iga birlashsa,

Shijoat birla to`sqinlarni yengsa, yuksalib oshsa,

Unib o`ssa, sanoat, ilmu-irfon suvlari toshsa,

Muhabbat birla millat tuyg`usi gar dilga erlashsa,

Kifoyat anga bosh egmak uchun vijdon qo`mondosi”-,

deb yuksak his-tuyg`ularga yo`g`rilgan misralarda o`z orzu-umidlarini ifoda etadi.

Kamol Abdullo Toshqinning O'zbekistonga muhabbat bilan yozilgan misralari xorijdagi ming-minglab vatandoshlarimiz qalbidan otilib chiqqan istak va tuyg`ulardir. Muhojir yurtdoshlarimizni ona yurtga mehrining she`riy ifodasidir. Salkam 60 yildan so`ng shoir o`zi tug`ilgan ona –yurt tuprog`iga qadam qo`ydi. Toshqin o`zining O'zbekistonga kelishi bilan orzu –umidlari ushalganini, qalbi

mislsiz quvonchlarga to`lganligini „Farzandlik salomi” nomli she`rida quyidagicha ifodalaydi.

Qo`lim ko`ksimda keldim sevgili yurtim salomingga,

O`pay tuproqlaringni ta`zim aylab ehtiromingga.

Shoir istiqlol O`zbekistonimiz kelajagi uchun keng istiqbollar ochib berganligi, yaxshi, farovonlik kunlari oldinda ekanligiga ishonch bilan qaraydi.

Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlashda butun vujudi, qobiliyati bian xizmat qilishga doimo tayyor ekanligini ta`kidlaydi.

Xulosa

Taqdim etilayotgan magistrlik dissertatsiyasida arab mamlakatlaridagi muhojir o'zbeklar tarixi va etnografiyasi masalalari ilmiy jihatdan imkon qadar tadqiq qilindi. Arab mamlakatlari Yaqin va O'rta sharq regionida joylashganligi, dunyo savdo yo'llari kesishgan nuqtalaridan biri bo'lganligi, qolaversa, islomiy(diniy) omilni ham e'tibordan qochirmaslik asnosida ishimizda quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi.

1. Arab mamlakatlaridagi o'zbek muhojirligining tarixi o'rta asrlarga XVI-XVIII asrlarga borib taqaladi. Qayd qilingan davrlarda arab dunyosida „o'zbek diasporasi” shakllandi degan, da'vordan yiroqmiz. O'zbek xalqi vakillari „savdo-sotiq ehtiyoji”, „haj ziyorati”, almashib turgan sulolalar davridagi „tazyiq va ta'qiblar” hamda boshqa turli omillar tufayli asl Vatanlaridan chiqib ketishga majbur bo'lganlar. XVIII-XIX asrlarda xonliklardagi savdogar va boylarning, ayrim hukmdorlarning Makkai-mukarrama, Madinai- munavvarada do'kon, maschit, savdo rastalari bo'lgan. Ularda xorijda qolib ketgan o'zbeklar xizmat qilishgan. Demak, muhojirlik dastlab yakka tartibda bo'lib, o'zbeklar butun arab davlatlari bo'ylab tarqalmagan edilar.

2. Sovet hokimiyati yillarida (1917-1991-yillar) yuritilgan noinsoniy siyosat tufayli xalq uch guruhga bo'lindi. Aholining bir qismi mustabid tuzumga qarshi qo'liga qurol olib hayotini garovga tikdi. Ikkinchi guruh kishilar istibdod davrida har qanday og'ir shartlarga ko'nib yashashga majbur bo'ldi. Uchunchi guruh esa vatanjudolik jandasini kiyib ajdodlar yurtidan qishloq va mahallari bilan xorijga, muhojirlikka ketdi. Muhojir bo'lganlar oz sonli emas edi. Ular asosan Turkiston mintaqasiga chegaradosh bo'lgan Afg'oniston, Eron, Xitoy kabi mamlakatlarga o'tib ketdilar. Arab mamlakatlari bo'ylab sochilib yashashga majbur bo'lgan o'zbek (turkistonlik)lar asosan dastlab Afg'onistonga o'tib bir muddat bu mamlakatda istiqomat qilganlar edi.

3. Muhojir o'zbeklarning Arabiston yarim oroli (Saudiya Arabistoni 1932 –yilda tashkil topgan) , Suriya, Urdun, Falastin, Iroq, Misr, Marokash, Jazoir kabi davlatlarga ko'chib yashashi 1930-1940-yillarda yuz berib, ikkinchi jahon urushi tugagan vaqtda ham turkistonliklar ko'p sonli bo'lib arab mamlakatlarida istiqomat qilardilar. Arab mamlakatlari, asosan, yirik mustamlakachi davlatlar mandati hisoblanib, 1950-1960-yillarda ular iqtisodiy-siyosiy qaramlikdan qutuldilar. Bu davlatlarda milliy siyosat yuritilishi, milliy davlatchilik asoslarining yaratilishi, kabi omillar muhojirlik jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

4. Arab mamlaktlarida islom orenamenti va yangi milliy hukumatlar yuritgan siyosat kabi omillar tufayli muhojir turkistonlik (o'zbek) larning milliy uyushmalari, matbuot organlari faoliyati rasman taqiqlab qo'yildi. Bu yo'nalishda faoliyat yuritilayotganlar o'z ishini to'xtatdi, yangi uyushmalar tuzilmadi. Bu esa muhojir o'zbeklarning ayrim arab davlatlaridan Turkiya Respublikasi, Yevropa davlatlari va AQSHga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. O'zbek muhojirlarining o'z yashash joylarini o'zgartirishlariga 1947-1948; 1967-1973; 1980-yillardagi Isroil-Arab harbiy to'qnashuvlari omili ham ta'sir ko'rsatdi.

5. 1950-yillarning oxiri 1960-yillarda muhojir turkistonlik (o'zbek)lar ommaviy ravishda Saudiya Arabistoniga ko'chib o'tdilar. Bu esa bir qator omillar bilan bog'liq. Birinchidan Saudiya Arabistonida iqtisodiy yuksalish yuz berib, turmush darajasi ko'tarildi, ikkinchidan, o'zbeklarga bu mamlakatlarda Imom al-Buxoriy yurtdoshlari sifatida alohida izzat-ikrom ko'rsatilishi, imtiyozlar berilib, o'zini tiklagunlaricha har qanday soliqlardan ozod etilganligidir. Uchinchidan, Saudiya Arabistonida tijorat va tadbirkorlik qilish, diniy ilmlar bilan shug'ullanish, ish bilan bandlik imkoniyatlari kengligi omilini ham nazardan qochirmaslik kerak. Agar 1950-yillarga qadar Saudiya Arabistoni bilan Misrda 37 ming sonli turkistonliklar istiqomat qilgan bo'lsa, 1960-1970-yillarda bu raqam 5000 ming kishini (ayrim ma'lumotlarda 700 ming) tashkil etdi.

6. Arab mamlakatlarida istiqomat qilgan, hozirda yashayotgan o'zbeklarning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo'lib, ular orasida diniy ulamolar, davlat xizmatchilari,

harbiylar, tijoratchilar, maishiy xizmat sohasidagilar, oddiy ishchilar va dehqonlar ham bor. Ular bugunga qadar to'rt bor avlod almashunivi bosqichidan o'tdi, 3-4-avlodlar Arabistonda va arab mamlakatlarida tug'ilib, voyaga yetganlardir.

7. Arab mamlakatlaridagi o'zbeklarning etno-sotsial qiyofasida o'zgarishlar yuz bergan. Ular milliylikni saqlab qolishning asosiy tamoyili – o'zbek tilini unutmadi va farzandlariga o'rgatdi. O'zaro quda-andachilikni yo'lga qo'yish orqali o'zbekona urf-odat va an'analarni saqlab qolishdi. Shuningdek, to'y, ta'ziya marosimlarida o'zbek-arab udumlari transformasiyalashgan jarayonlarni ham kuzatamiz.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, istiqbolda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan quyidagicha takliflar bildirmoqchiman.

1. Arab mamlakatlaridagi o'zbeklar tarixi va etnografiyasi mavzusini to'la qamrab olinadigan fundamental monografiya tadqiqoti yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
2. Saudiya Arabistonida yashab, hozirda marhum bo'lgan yuzlab ulamo va olimlardan o'zbek va arab tillarida boy ma'naviy meros qolgan. Ularni o'rganish, bugungi avlodni tarbiyalash vositasiga aylantirish maqsadga muvofiq.
3. Arab mamlakatlaridagi ziyoli o'zbeklarning asarlari bibelografiyasini tuzish, internetda veb-saytni yaratish ham istiqboldagi tadqiqotlar zimmasida deb o'ylayman.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari

I.1.Karimov I.A O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li .- Toshkent ;

O'zbekiston ,1992-78 b

I.2. Karimov I.A . Tarixiy hodisasiz kelajak yo'q.-Toshkent : Sharq ,1998 .-32 b

I.3 .Karimov I .A O'zbek xalqi hech qachon ,hech kimga qaram bo'lmaydi .-T.13
– Toshkent :O'zbekiston ;2005 -445 b

I.4. Karimov I.A Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb
hisoblashadi.-Toshkent: O'zbekiston; 2005.-62 b.

I.5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. – Toshkent:ma'naviyat;
2008.- 176 b.

I.6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarini yanada
chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirilishi konsepsiyasi.-Toshkent:
O'zbekiston; 2010. -56 b.

I.7. Karimov I.A. O'zbekistonmustaqillikka erishish ostonasida.- Toshkent:
O'zbekiston; 2011.- 440 b.

I.8. Karimov I.A. O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy
me'rosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojiga roli va ahamiyati mavzusidagi
xalqaro konferensiyada qilingan nutq. -Samarqand, 2014- yil 15- may// xalq so'zi;
2014-yil, 16- may

I.9. Karimov I.A. „O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning
muhim zahirolari” mavzuidagi xalqaro konferensiyada qilingan nutq. –Toshkent;
2014-yil 6- iyun//Vatanparvar; 2014-yil 13-iyun.

II. Tarixiy hujjatlar.

II.1. Oyni etak bilan yopib bo'lmish.....(„Vatan” jamiyatining 1977- yil 28-oktabrd a o'tkazilgan matbuot konferensiyasi materiallari). –Toshkent, 1977. -46 bet.

II.2. O'zbekiston SSRning „Davlat tili to'g'risida”gi qonun. –Toshkent: O'zbekiston; 1989. -16 bet.

II.3. O'zbekiston Prezidentining musulmonlarning haj safariga borish to'g'risidagi farmoni (1990- yil 2- iyun) //Xalq so'zi; 1990- yil 4-iyun.

III.4. O'zbekistonning „Mustaqillik Deklaratsiyasi” (O'zbekiston Oliy Kengashining, 1990-yil 20-iyundagi ikkinchi sessiyasida qabul qilingan) //Sovet O'zbekistoni . –Toshkent, 1990; N7.

III.5. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari haqida qonun (1991- yil 31-avgustda qabul qilingan) //Xalq so'zi. 1991, 27-sentabr.

III.6. Obrasheniye uchastnikov pervoy Tashkentskoy mejdunarodnoy vstrecha uzbekov(turkestansev)//Pravda Vostoka. 1991, 27-sentabr.

III.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ro'za hayiti kunini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risidagi farmoni (1992-yil 27-mart)//Xalq so'zi; 1992-yil 29-mart.

III.8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (29- modda. –Toshkent; 1998. -28 b.)

III.9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston; 2012. -40 b.

III. Adabiyotlar.

- III.1. Abdulvohid Yassa. Jon ketar, Vatan ketmas//Guliston. -1996. –N3. –B. 14-15.
- III.2. Abdulqayum Ayritomiy. Lutfu-ehson, mehr-mutuvvat// Muloqot. -1995. –N4. –B. 28-30.
- III.3. Abdullayev E.B. Islom I islamskiy factor v sovremennom Uzbekistane//Sentralnaya Aziya.(Moskva), 1998. –N6. –S. 87-100.
- III.4. Abdulla Andijoniy. Dardingni olay, O`zbekistonim//O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 1991-yil 1-noyabr.
- III.5. Abdullayev M. Otamakon O`zbekistonda//O`zbekiston adabiyoti va san`ati; 1991-yil 27-sentabr.
- III.6. Alimova D. „Hujumga zarurat bormidi?// O`zbekiston adabiyoti va san`ati; 1992-yil 11-sentabr.
- III.7. Ahmedov B. O`zbeklar// Muloqot; 1991. –N1. –B.53-56.
- III.8. Brauer D Makkaga yo`l//Turon;1993 yil may. –B. 30-32.
- III.9. Jalilov S. Buxoriylar qissasi(Muhojirat tarixidan lavhalar). „Toshkentislom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi; Toshkent, 2006. -284 b.
- III.10. Zuhridin Mirzo Obid o`g`li Turkistoni. Anda jonimqoldimening.... – Toshkent: Cho`lpon; 1992. -58 b.
- III. 11. Ibrohim Yorqin. Xotiralar//Jahon adabiyoti, 2002. –N6. –B. 134-145.
- III.12. Mubashshirxon Said. Xotiralar//Dunyo, 1993. –N 1.
- III.13. Irisov A. Vatan mehri//Guliston; 1995. –N 5-6 –B. 38-40.
- III.14. Nurullaxon hoji Abdullaxon Qo`qondiy. Muborak haj safari. Kamalak; 1991. -142 b.

- III. 15. Oripova K. Muhojir tushunchasi// Hayot va qonun; 2003. –n4. –B.52-53.
- III.16. Rahimboboyeva Z. Vatan, Vatan, vatanparvar, vatanjudo// Xalq so`zi; 1991 yil 17 yanvar.
- III.17. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi(Fors-tojik tilidan dok.H.H.To`rayev tarjimasi). –Buxoro; 2004. -127 b.
- III.18. Usmonov I. Tutash taqdirlar//Muloqot; 1991. –N11. –B.91-95.
- III.19. Usmonov I. Otamakon diyor tushlarimga kiradi//Muloqot. -1991. –N12. –B.68-72.
- III.20. Xo`jayev M. Xorijdagi o`zbek oilalari//Qonun himoyasida.2004. –N1. –B. 15-17.
- III.21. Esirgap Boli o`g`li Jo`shqin. Hojilar// Xalq so`zi; 1991-yil 4- yanvar.
- III.22. Qosimov E. Otajon men qizingizman//Toshkent haqiqati; 1991-yil15-yanvar
- III.23. Qosimov E. Otajon menqizingizman//Toshkent haqiqati; 1999-yil 30-noyabr.
- III.24. Hayitov Sh; Sobirov n; Letay A. Xorijdagi o`zbeklar. –T.: Fan; 1992. -107 bet.
- III.25. Hayitov SH. O`zbek muhojirligi tarixi(1917-1991-yillar). T.: ABV MATBVOT KONSALT; 2008. -208 B.
- III.26. Hayitov Sh.Chor Rossiyaning mustalakachilk siyosati davrida Turkiston musulmonlarning haj ziyorati// Iz istorik kulturnogo naslediya Buxari. Izd. Buxara. -2006. –S. 89-95.
- III.27. Hayitov Sh. Aymatova Z. Markaziy Osiyo musulmonlarining muborak haj ziyorati: Tarix va bugun. –Buxoro: , ”Buxoro” nashriyoti, 2014. -42 b.

III.28. Yusupov A. Xorijdagi o`zbeklar//Yoshlik; 1989. –N2. –B 54-58.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar.

IV.1. A`zamova G.A Xorijdagi o`zbeklar: ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muammolari. Falsafa fanlari nomzod.dissertasiyasi. –Toshkent. -1995. -116 varaq.

IV.2. Boltaboyev S.D. Vakufnoye imushestvo v Turkestanskomkraye vo vtoroy polovine XIX i v nachale XX v. Avtoref.diss.....Istoriya nauk.-Tashkent. -1995. -28 str.

IV. 3. Hayitov Sh.A. Istoriya uzbekskoy emigrasii XX veka. –Avtoref. diss.....dok. ist.nauk. –Tashkent; 2009. -50 str.

IV.4. Boltayev A. H. Xorijdagi o`zbeklarning milliy uyushmalari va matbuot organlari. Magistrlik dissertasiyasi; Buxoro:2013. 76 varaq.

IV.5. Nafiddinova X.R. AQSHdagi o`zbeklarning tarixi va etnografiyasi.magistrlik dissertasiya. –Buxoro: 2014. – 81 varaq.

V. Xorijda chop etilgan adabiyotlar.

V.1. Grigoriev E. Russian Muslim Pigrimages to Makkay in the. Early Twentieth. Century//Kingdom of Study Arabia in 100 years//studies and Researches. Riyadh. 2008. –P.46-73.

V.2. Mehmet Saroy. Rus ishgali Devrinde Osmanli Devletinin Turkistan Hanliklari arasindagi Siyasiy munasebetleri. Ankara. -1994. -282 S.

VI. Internet ma`lumotlari.

VI.1. [http: www: regnum.ru/news/1162929. html](http://www.regnum.ru/news/1162929.html).

VI.2. www.e.tarix.uz.

VI.3. [www.12](http://www.12.uz). uz.

Magistrlik dissertatsiyasi annotatsiyasi

Tayanch (eng muhim) soʻzlar: „Buxoriy“, „Turkistoniy“, muhojir oʻzbek, arab, Suriya, Iroq, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, arablashuv, forslashuv, Vatan, vatanjudo, vatanparvar, haj ziyorati, tijorat, ulamo, ziyoli, qismat, oʻzbek tili, millat, urf-odat.

Tadqiqot obʻektlari: Arab mamlakatlaridagi oʻzbeklar, tarixi va etnografiyasi, oʻzbeklarning arab mamlakatlari boʻylab tarqalishi bosqichlari, milliylikni saqlashga qaratilgan tashkilot va uyushmalar faoliyati.

Tadqiqot maqsadi: Oʻzbek xalqi vakillarining arab mamlakatlari boʻylab tarqalishi sabab va omillari, ular tarixiy bosqichi, muhojirlarda milliylik va etnosotsial jarayonlar tahlili hamda asl vatanlari Oʻzbekistonga munosabat masalalarini tahlil qilish.

Tadqiqot usuli: Oʻrganilayotgan mavzuda tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, davriy yil xronik, xolisonalik, obʻektivlik tamoyillariga tayanilgan holda muammoga umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar nuqtai-nazaridan yondashildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Dissertasiyada ilk bor arab mamlakatlarida uzoq yillardan buyon istiqomat qilib kelayotgan oʻzbeklar tarixi va etnografiyasi muammosi umumiy holatda ilmiy jihatdan oʻrganildi. Arab mamlakatlaridagi oʻzbeklarning Oʻzbekiston bilan oʻzaro hamkorlik va qavm-qarindoshlik aloqalari xususida fikr bildirildi.

Amaliy ahamiyati: Dissertasiyada keltirilgan maʼlumotlar arab mamlakatlaridagi oʻzbeklar tarixi va etnografiyasi haqida tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Magistrlik ishi soʻnggida keltirilgan maʼlumotlar, bildirilgan takliflar istiqbolda Arab mamlakatlari va Oʻzbekiston munosabatlari rivojiga yordam beradi.

Tatqiqot qilish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: Dissertasiya mazmunini ifodalashga qaratilgan ikkita ilmiy maqola chop ettirildi. Universitet va

institutlardagi „Tarix” ixtisosligi talabalariga, akademik litsey o`quvchilariga amaliy mashg`ulotlar o`tishda tatqiqot ma`lumotlaridan, unda keltirilgan dalil va raqamlardan foydalanilgan, 2013-2014; 2014-2015 o`quv yillarida talaba va o`quvchilarga o`tkazilgan ma`naviyat darslari orqali dissertasiya ma`lumotlari targ`ib etilgan.

**Qo`llanilishi(foydalanish) sohasi:** Dissertasiya materiallaridan O`zbekistonning yangi va eng yangi tarixi, xalqaro munosabatlar sohalarida fundamental kitoblar yaratishda foydalanish mumkin. Shuningdek, bugungi avlodda vatanparvarlik, milliy istiqlol g`oyalariga sadoqat ideallarini tarbiyalashda tatqiqotda keltirilgan dalil va raqamlar qo`llanilishi mumkin.

Ilmiy rahbar: T.f.d prof. Sh.A.Hayitov

Magistr: Ikromov Ikrom Komilovich

Аннотация магистерской диссертации

Опорные слова : “Бухорий”, “Туркистоний”, араб, Сирия, Ирак, Иордания, Саудовская Аравия, арабизация, родина, патриот, паломничество, интеллигентный, судьба, узбекский язык, нация и обычаи и традиции, коммерция, человек без родины, персидизация.

Объекты последования : Узбеки в арабских странах : этнография и история, периоды распространения узбек в арабских странах, деятельность организаций, занимающихся сохранением национальностей независимости.

Цель исследования : исследование причин исторических этапов и предпосылок распространения представителей узбекской нации в арабских странах отношении к Узбекистану.

Приемы исследования : хроникальное, объективное, беспристрастное. Распространения предмета исследования с точки зрения общечеловеческих ценностей, национальных интересов.

Выводы и их повизна : В диссертации впервые с научной точки зрения рассматривается проблема этнографии и истории проживания узбеков, проживающих дольше годы в арабских странах.

Проктическое значение: Сведения, изложенные в диссертации создают представление об этнографии и истории узбеков проживающих в арабских странах. Факты, приведенные в заключительной диссертации, предположения могут помочь в будущем развитию отношений между Узбекистаном и Арабскими странами.

Экономический эффект и уровень исследования: были напечатаны две статьи, раскрывающие содержание диссертацию работе использованы материалы из практических занятий академических лицеев, исторического направления университетов и институтов. Факты и сведения рассмотренное на уроках духовности в лицеях.

Применяемые области : Материалы диссертации могут быть использованны в создании фундаментальных работ по повестей истории, в области международных отношений. Факты и сведения могут применяться при патриатическом воспитании, могут способствовать национальному самосознанию молодежи.

Научный руководитель:

Д.и.н. проф.Хаитов .Ш.А

Магистр:

Икрамов .И.К.

Annotation of the dissertation

Key words: “Buchari”, “Turkistani”, uzbek emigrant, arab, Syria, Iraq, Jordan, Saudi, motherland, wanderer, patriot, pilgrimage, commerce, scientist, intellectual, fate, the Uzbek language, nationality, tradition.

The objects of the research: the ethnography and history of the Uzbeks in Arabic countries, the steps of spreading the Uzbeks throughout the Arabic world, the action of unions and organizations to save the nationality.

The aim of the research: to analyze the reason of spreading the Uzbeks throughout the Arabic countries and its historical steps, emigrant’s attitude to their motherland Uzbekistan.

The style of the research: to follow the rules of objectiveness, while working on the research, by relying on the facts, impartiality, chronic, historicity of the theme.

The results and their novelty: the problem of the ethnography and history of the Uzbeks who have been living long in the Arabic countries is scientifically studied in the dissertation. The relationship and relative of the Uzbeks in Arabic country with Uzbekistan is presented in the conclusion.

Practical importance: the information presented in the dissertation serves to imagine about the ethnography and history of the Uzbeks living in Arabic countries. The information given at the of the dissertation helps to develop the relationship between Uzbekistan and Arabic countries.

The degree of discovering and the financial effectiveness: there are two scientific articles published on the theme of the research. The information, facts, data of the research have been used to teach the students of the University and Institutes for whom history is special subject, and the academic lyceum. Dissertation’s information is discovered by spiritual lessons taught in 2013-2014, 2014-2015 academic year.

The field of usage: the materials of the dissertation may be used to create new and the newest history of Uzbekistan, and fundamental books on the fields of international relationships. The facts and information can be used to bring up the youth patriotically.

Supervisor:

Doctor of History, prof. Sh.A.Khaitov

Holder of a master's degree:

Ikromov Ikrom Komilovich